

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI

Aminova Dono O`ktamboy qizi

5230100- “Iqtisodiyot (Makroiqtisodiyot)” yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini
olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: O`zbekistonda lizing operatsiyalarini amalga oshirish tizimini
takomillashtirish yo`llari**

Ilmiy rahbar:

Matyoqubova D.

Urganch 2019

MAVZU: O`zbekistonda lizing operasialarini amalga oshirish tizimini takomillashtirish yo`llari

KIRISH	3
I-bob. Bozor iqtisodiyoti sharoitida lizing operasialarini amalga oshirishning mohiyati va vazifalari	7-31
1.1. Lizing xizmatlari bozorining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.....	7
1.2. Respublikamizda lizing xizmatlarini amalga oshirishning huquqiy asoslari.....	19
1.3. Lizing operasialarini amalga oshirishning jahon tajribasi.....	26
II-bob. O`zbekistonda lizing operasialarini amalga oshirish tizimi istiqbollari	32-55
2.1. O`zbekistonda lizing operasialarini amalga oshirishning hozirgi holati....	32
2.2. Milliy iqtisodiyotini modernizasiya qilish sharoitlarida lizing munosabatlarini rivojlantirish yo`nalishlari.....	44-54
2.3. O`zbekistonda lizing operasialarini amalga oshirish tizimi istiqbollari.....	55
Xulosa va takliflar	61
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	63

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda hozirgi vaqtda lizing xizmatlari ko`rsatuvchi 126 ta tashkilot faoliyat yuritmoqda. Harakatlar strategiyasi ijrosi doirasida Prognozlashtirish va maqroiqtisodiyot tadqiqotlar instituti, O`zbekiston Respublikasi vazirlik va idoralari mutaxassislari tomonidan Janubiy Koreya Respublikasi jamg`arma birjasi, BMT Taraqqiyot dasturi, Xalqaro moliya korporasiyasi ishtirokida lizing bozorini rivojlantirish bo`yicha chora-tadbirlarni o`z ichiga olgan o`rta va uzoq istiqbolga mo`ljallangan O`zbekiston Respublikasi moliya bozorini rivojlantirish Konsepsiyasi ishlab chiqildi. Moliya bozorining lizing tarmog`i mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori o`sinh ko`rsatkichlariga erishish hamda raqobatbardoshligini ta`minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lizing xizmatlari bozorini yanada kengaytirish uchun ulkan salohiyat mavjud, bu esa raqobat kuchayishi, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatining kelajakda yanada o`sishi hamda xizmat ko`rsatishda yangi yo`nalishlar ochilishiga zamin yaratadi.

Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishga yo`naltirilgan islohotlar O`zbekistonda lizing xizmatlarini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu islohotlar tufayli bugun davlatimiz barqaror taraqqiy etmoqda va so`nggi yillarda, ayniqsa, huquq sohasida katta o`zgarishlar ro`y berdi.

Mahalliy lizing bozorining asosiy islohotchisi davlat hisoblanadi va lizing bozorining samarali rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Bunda lizing asosiy jamg`armalarni texnik jihatdan qayta jihozlash va modernizasiya qilish hamda zaxiralarni oqilona taqsimlashning eng samarali usullaridan biri ekanini anglab yetish zarur.

Yurtimizda yaratilgan qulay sharoitlar valyuta bozorini erkinlashtirish jarayoni bilan bir qatorda lizingning yanada rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Mazkur bosqichda O`zbekiston lizing beruvchilariga lizing faoliyatini yuritishlari uchun tashqi moliyalashtirishni taqdim etish samarali hisoblanadi.

Bugun O`zbekistonda yalpi ichki mahsulot tuzilmasidagi lizing amaliyotlari

hajmi yildan-yilga oshayotgani kuzatilmoqda. Bundan tashqari, lizing bozorida ishtirokchilar – lizing amaliyoti bilan shugʻullanuvchi banklar va lizing kompaniyalari soni muntazam ortib bormoqda. Mamlakatimizda hozirgi vaqtda lizing xizmatlari koʻrsatuvchi 126 ta tashkilot, jumladan, 24 tijorat banki faoliyat yuritmoqda. Oʻtgan 2018 yil lizingning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 0,5 foizni tashkil etdi. Joriy 2019 yilning birinchi yarmi yakunlariga koʻra, lizing amaliyotlarining umumiy portfeli 2 trillion 529 milliard soʻmni tashkil qildi. Lizing beruvchilar umumiy qiymati 710 milliard soʻmdan ortiq boʻlgan 4 ming 674 ta lizing shartnomasi tuzdi, bu oʻtgan yilning shu davridagiga nisbatan 65,1 foizga koʻp.

Hozirgi vaqtda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun mini-texnologiyalar, sanoatning yetakchi tarmoqlarini modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga ehtiyojning mavjudligi mahalliy lizing bozori rivojlanishining asosiy tendensiyasi hisoblanadi.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Mamlakat iqtisodiyotini modernizasiya qilish va islohotlarni chuqurlashtirish davrida bozor sub'ektlari faoliyati uchun zarur boʻlgan lizingni oʻrganishga eʼtibor yanada ortmoqda. Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlardan E.Dolan, R.D.Bazzel, D.D.Van-xauz, X.U.Dyurig, S.A.CHandra, G.Dauling va boshqalarning ilmiy asarlarida lizingning turli qirralari oʻz aksini topgan. Mamlakatimizda korxonalar kapitalini boshqarish tizimida lizingdan foydalanishning nazariy va amaliy yoʻnalishlari hozirgi kunda kam oʻrganilgan muammo hisoblanadi. Xususan, S.S.Gʻulomov, Sh.Z.Abdullaeva, T.I.Boboqulov, A.V.Vaxabov, F.M.Mullajonov, O.K.Iminov, A.A.Omonovlarning ilmiy ishlarida moliya bozori, unda tijorat banklarining oʻrni, shuningdek, korxonalar kapitalini boshqarishda lizingning ayrim masalalari tadqiq etilgan. Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizasiyalash va islohotlarni chuqurlashtirish davrida tijorat banklarini kapitallashtirish darajasiga, investisiya faoliyatiga, bank muassalarini kengaytirish masalalariga boʻlgan 6 talablarning oʻzgarishi va bundan kelib chiqadigan masalalarni hal etishda lizingning ahamiyati va vazifalari deyarli

o`rganilmagan. Hozirgi kunda mamlakatimizda lizing operatsiyalarini amalga oshirish tizimi lizingni kengaytirish hamda uni takomillashtirish muammosi mavjud.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Ishning asosiy maqsadi lizing munosabatlarining O`zbekiston iqtisodiyotini yanada isloh qilish, ishlab chiqarishni jadal modernizasiya va rekonstruksiya qilishda g`oyat dolzarb bo`lgan mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurish borasidagi amaliy ishlarda tadbirkorlik faoliyatining muhim shakli hamda investision jarayonni moliyalashtirishning eng muqobil va optimal varianti ekanligini asoslash, shuningdek tijorat banklari tomonidan olib borilayotgan moliyaviy lizing xizmatlarining korxonalar moliyaviy salohiyatini oshirishda tutgan o`rnini yoritib berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining oldiga qo`yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

Tadqiqot ob'ekti: O`zbekistonda faoliyat yuritayotgan lizing kompaniyalari.

Tadqiqot predmeti bo`lib, lizing kompaniyalari tomonidan olib borilayotgan lizing operatsiyalarini o`rganish, lizing xizmatlaridan foydalanayotgan korxonalar moliyaviy salohiyatidagi o`zgarishlarni aniqlash hamda islohotlar davrida lizing munosabatlarini korxonalar faoliyatida keng joriy etish va uning moliya bozoridagi ulushini oshirish bilan bog`liq bo`lgan ilmiy masalalar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida segmentlash, ekonometrik modellashtirish, ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil hamda tizimli yondashuv metodologiyasi va statistik usullar qo`llanilgan.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslari. Bitiruv malakaviy ishining nazariy-uslubiy va ilmiy asoslarini mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o`tishning konseptual qoidalari, O`zbekiston Respublikasining "Lizing to`g`risida"gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti

Farmonlari, asarlari, Markaziy bankning lizing bo'yicha yo'riqnoma hamda me'yoriy hujjatlari, xalqaro klassik va hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyalari, marketing dasturlarini rivojlantirishning asosiy qonun-qoidalari, mustaqil davlatchilik va lizing sohasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar hamda ularni amalga oshirish yo'nalishlariga bag'ishlangan mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarning ushbu sohadagi ilmiy asarlari, maxsus yo'riqnomalar va ko'rsatmalar tashkil etadi

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan, uning umumiy hajmi 68 betda ifoda etilgan. Bitiruv malakaviy ishida 7 ta jadval, 2 ta rasm, 5 ta diagramma, 6 ta chizmadan foydalanilgan.

1.1. Lizing xizmatlari bozorining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Lizing munosabatlarining mohiyati uning shakllanishi, bizgacha yetib kelishi va rivojlanishi, shuningdek ushbu rivojlanish davomida yuzaga kelgan o'zgarishlar tarixini chuqurroq o'rganish natijasida yoritiladi. Iqtisodiy munosabatlar tarixini o'rganuvchi olimlar fikriga ko'ra ijara munosabatlari bundan 4 ming yil avval ham mavjud bo'lib, o'zining boy va rangbarang tarixi bilan ajralib turadi. Insoniyat tarixidan dastlabki ijara kelishuvining qachon amalga oshirilganligini hech kim aniq bilmasada ushbu faoliyat turidan guvohlik beruvchi ashyoviy dalillar eramizdan oldingi 2000 yillarga to'g'ri keladi. 1984 yilda Shumer davlatining Ur shaharchasida olib borilgan qazilma ishlarida olimlar tomonidan dastlabki ijara kelishuvlari ifodalangan loytaxtalar topib olingan¹. Bu loytaxtalardan ruhoniylarning birinchi ijaraga beruvchilar bo'lishganini va ular ijaraga qishloq xo'jalik qurollarini, suv manbalari va hokazolarni berishganini e'tirof etish mumkin. Bundan tashqari, olimlar tomonidan eramizdan oldingi 450-400 yillarda Vavilon davlatining janubi-sharqiy tomonida joylashgan qadimgi shahar Nippurda Murashu oilasi asos solgan dastlabki ijara kompaniyasi aniqlangan. Ushbu oila o'z davrida ijara xizmatlari bozorida yetakchilik qilib, asosan yer, qoramol va qishloq xo'jalik texnikasini ijaraga bergan².

Xalqaro savdoda o'zining uddaburonligi va omadliligi bilan dong taratgan finikiyaliklar kemalarni ijaraga berish bilan shug'ullanishgan. Qadimda amalga oshirilgan ijara kelishuvlarini o'zining iqtisodiy-huquqiy mohiyatiga ko'ra hozirgi lizing munosabatlariga juda o'xshab ketadi. Aynan finikiyaliklarni oddiy ijara munosabatlaridan farq qiluvchi moliyaviy ijara (lizing)ning asoschilari desa to'g'ri bo'ladi. O'sha paytda lizingga oluvchilarga egalik qilish, foydalanish uchun berilgan kemalarning muddati ularning samarali foydalanish muddatiga yaqin bo'lgan. Finikiyaliklar mijozlarining ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uchun ijaraga berayotgan kemalari bilan birgalikda kemachilar guruhini ham qo'shimcha xizmat sifatida taklif etishgan. Garchi lizingga oluvchilar kemalarga

¹ Газманов В.Д. «Рынок лизинговых услуг». – М.: Фонд «Правовая культура», 1999. стр 17

² Газманов В.Д. «Рынок лизинговых услуг». – М.: Фонд «Правовая культура», 1999, стр 18

egalik qilish va ulardan foydalanish bilan bog`liq bo`lgan, iqtisodiy foydaga ega bo`lishsada, ular duch kelishi mumkin bo`lgan xavf-xatarlar ham juda ko`p bo`lgan³. Eramizning 1066 yilida Norvegiya qiroli hamda Normandiya gersogi birlashib to`satdan Angliyaga xujum qilishadi. Ikki hafta ichida ikkala flot tomonidan Angliyaning ko`pgina qirg`oqlari egallanib olinadi. O`sha paytda na Norvegiya qiroli va na Normandiya gersogi yetarlicha o`zining kemalariga ega bo`lishgan. Bundan tashqari ular bu turdagi xarbiy kompaniyani moliyalashtirishga va o`zlarining faoliyatlarini qurishga ham mablag`ga ega bo`lishmagan. Inglizlar esa boshqa chora topa olmay takdirilariga tan berishgan. Lekin hammasi o`zgacha bo`lishi mumkin edi, ya`ni bu orada qirol va gersog moliyalashtirish manbaini topishdi: ular flot, qurol–yarog` va xarbiy guruhlarini ijaraga olishib, o`zlarining «biznes - reja» larini muvaffaqiyatli amalga oshirishadi. yevropadagi savdo markazlaridan biri bo`lgan qadimiy Venesiyada ham dastlabki lizing munosabatlari mavjud bo`lganligi to`g`risida ma`lumot saqlanib qolingan⁴. Venesiyaliklar savdo-sotiq maqsadida kelgan xorijiy savdo kemalarini suv ko`rfazida ushlab turish uchun o`sha darvlarda o`ta qimmatbaho bo`lgan kema lizinglarini ijaraga berishgan. Keyinchalik bunday imtiyozli xizmat turidan uzoq safarlariga otlangan mahalliy suv kemalarining egalari ham foydalanishgan. O`rta asrlarda qishloq xo`jalik qirollari va o`qlari ijarasi mashhur bo`lgan. Tarixiy ma`lumotlarga ko`ra, o`sha paytda risarlik qurol-aslahalari juda qimmat bo`lganligi tufayli ularni ijaraga berish ommalashgan. Masalan, 1248 yilda Gaetalik risar Bonfils Manganella yettinchi salb yurishiga tayyorlanayotib risarlik qurol-aslohalarini ijaraga olgan. Ijara haqi qurol-aslahalarni sotuv qiymatining 25 %ni tashkil qilgan. XIX asrda jamiyatda foydalanilayotgan ijara predmetlarining ko`payib ketayotganligi sababli ijara munosabatlarida ham o`sish kuzatilgan. Qishloq xo`jaligi, ishlab chiqarish va transport sohasida qo`llanilayotgan texnologiyalarning jadal rivojlanishi tadbirkorlik qatlamida ijaraga bo`lgan talabning oshishiga va uning ancha


³ Кабатова Е. Лизинг: Понятие, правовое регулирование, международная унификация. – М.: наука, 1991. 38 с

⁴ Кабатова Е. Лизинг: Понятие, правовое регулирование, международная унификация. – М.: наука, 1991. 39 с

omallashuviga olib keldi. AQSh da temir yo'llarini qurish ijaraning yanada tez sur'atlarda o'sishga sabab bo'ldi. Shu yillarda astriyalik olim V.Xoyer 1877 yilda o'zining «Evropada qanday qilib biznes qilish kerak» degan kitobida «Bell» telefon kompaniyasida ishlab chiqarilgan telefon apparatlarining sotilmasidan ijaraga berilganligini va uning natijasida katta foyda ko'rilganligi haqida yozadi. Bu kompaniya o'z iste'molchilariga telefon apparatini qiymatini aloqa xizmati haqiga mutanosib ravishda qo'shib to'lash sharti bilan ijaraga berib yuborgan. Bunda iste'molchilar telefon apparatida foydalanish huquqi bilan birga kelishilgan to'lovlarni amalga oshirilganlaridan so'ng, uning egasi bo'lish huquqini ham qo'lga kiritishgan. Bu voqea aloqa sohasining rivojlanishiga hamda iste'molchilardan o'z mulkiga bo'lgan egalik tuyg'usini shakllantirishga turtki bo'ldi. Demak, ijara orqali nafaqat mulkdan foydalanish huquqini, balki ijaraga olingan mulkka egalik qilish huquqini ham qo'lga kiritish mumkinligi isbotlandi. Ushbu telefon apparatlari ijarasi hozirgi zamonaviy lizing munosabatlarining tamal toshidan biri bo'lgan ijaraga berilgan mulkni ijaraga oluvchining mulkiga o'tish qoidasini ko'rsatib berdi. XX asrdagi sanoat inqilobi ijara munosabatlariga o'zining ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bu paytga kelib ishlab chiqaruvchilarning o'zlari ijaraning rivojlanishiga turtki berishdi. Ular ijaraga o'zlari ishlab chiqargan asbob-uskuna va qurilmalarni sotish vositasi sifatida qaray boshlashdi. Bu paytda Buyuk Britaniyada kapitalizmning jadal rivojlanishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ayrim turlarini ijaraga berish jarayonini tezlashtirib yubordi. Ayniqsa temir yo'l transporti va toshko'mir qazib olishning go'rkirab o'sishi ijara munosabatlarini jonlanishida katta rol o'ynadi. Ma'lumki, qazib olingan toshko'mirni iste'molchilarga uzluksiz yetkazib berishda katta miqdordagi temir yo'l vagonlariga zaruriyat tug'iladi. Lekin kon sanoati korxonalarida hamma vaqt ham bunday moliyaviy imkoniyatga ega bo'lishmagan. Ana shunday holatlarda moliyaviy jihatdan baquvvat kompaniyalar foyda olish uchun temiryo'l vagonlarini sotib olib, ularni konchilarga ijaraga berishgan. Vaqt o'tib ijara muddati tugagach, konchilarga vagonlarni sotib olish huquqi bilan ijara bitimi tuzilgan. Bunday

shartnomalar «ijara-sotish» deb atalgan. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirsak zamonaviy lizingning yana bir muhim jihati boʻlgan – uchinchi (vositachi)shaxsning, yaʼni lizing kompaniyalarining vujudga kelishi uchun poydevor qurilganligini kuzatishimiz mumkin. Lizing tarixini oʻrganar ekanmiz, bu borada Aristotelning falsafiy fikrlariga toʻxtalib oʻtish lozimdir. U oʻzining asarida «Boʻylik mulkka egalik qilishda emas, balki undan oqilona foydalanishdadir», yaʼni xoʻjalik yurituvchi subʼekt daromad olishi uchun biror bir mulka ega boʻlishi shart emas, faqatgina shu mulkdan foydalanish natijasida daromad olish huquqiga ega boʻlishi yetarli, degan fikrni ilgari surgan edi. Olim ushbu falsafiy fikrlari bilan lizing gʻoyasini yaratdi, u bugungi kunda ham lizing mohiyati va ahamiyatini ochib berish uchun asos boʻlib xizmat qilmoqda. Huquqiy jihatdan lizing dastlab eramizdan oldingi V asrda Rim imperiyasining qonuniy hujjatlarida oʻz aksini topgan. Rim huquqnomasini kodlashtirgan Rim imperatori Yustinian I (483-565) ijara munosabatlarini huquqiy hujjatlarda qayd ettirgan. Bunday ijara munosabatlarni rivojlantirish nafaqat falsafiy gʻoyalarga ega boʻlish, balki u mulkiy munosabatlar sifatida oʻzining huquqiy mazmuniga ega boʻlishini taqoza etgan. Yuqorida keltirib oʻtilgan tarixiy maʼlumotlar lizing munosabatlarini faqat shu davrdan boshlab mavjud boʻlgan, degan xulosani bermasligi kerak. Chunki insoniyat tarixi rang-barang boʻlib, uning hoai ochilmagan qirralari behisobdir. Lizing gʻoyasi garchi yangi boʻlmasada lizing atamasining qoʻllanilayotganligiga koʻp vaqt boʻlgan emas. Lizing munosabatlarida tub oʻzgarishlar XX asrning 50-yillarida Amerikada sodir boʻldi. Lizinga texnologik vositalar, mashinalar, mexanizmlar, kemalar, samolyotlar va bir qator ishlab chiqarish vositalari faol ravishda berila boshlandi. Ushbu oʻzgarishlarni AQSh hukumati munosib baholab, lizing faoliyatini ragʻbatlantiruvchi davlat dasturini ishlab chiqdi, buning natijasida lizing munosabatlari jadal rivojlana boshladi va lizing biznesining shakllanishiga turtgk berdi. Maʼlum bir toʻlov evaziga lizing kompaniyalari va firmalari tashkil etilib, lizing operasialari tadbirkorlik faoliyatining asosiga aylandi.

O'tgan asrning 60-80-yillarida AQSh, Kanada va yevropada lizing munosabatlari tez sur'atlarda rivojlandi, uning geografik maydoni keygayib Avstraliya va Yaponiyada ham lizing bozori shakllantirildi. 80-yillarning oxiriga kelib lizingning rivojlanish darajasi va dinamikasini quyidagicha tavsiflash mumkin: agar 1987 yilda AQSh sanoatiga kiritilgan jami investisiyaning 28 foizi mol-mulk (asbob-uskunalar) lizingiga to'g'ri kelgan bo'lsa, Avstaliyada ushbu ko'rsatkich 30 foiz atrofida, Buyuk Britaniyada 20 foiz, Fransiyada 17 foiz, Italiyada 14 foiz, Germaniyada 15 foiz, Avstriyada 9 foiz atrofida, Kanadada esa qariyb 8 foiz bo'lgan. Hozirgi kunda lizing operasialari ushbu mamlakatlarda 1,5-2,0 marta oshgan. Rossiyada ushbu ko'rsatkich 1996 yilda 1,2 foizni tashkil etib, 2000 yilga kelib 20 foizga etgan⁵.



1.1.1-chizma. AQShda lizingga berilgan jami mol-mulk tarkibi⁶

Bundan tashqari, 1987 yilda AQShda lizingga berilgan jami mol-mulkning tarkibi 1-rasmda ifodalangan. Shuningdek, shu yili AQShda lizingning alohida shakllari o'rtasidagi munosabatlar quyidagicha bo'lgan: jami tuzilgan lizing shartnomalari orasida moliyaviy lizing operasialari bo'yicha tuzilgan shartnomalar 65foizni, operativ lizing bo'yicha esa 10 foizni va levej-lizing

⁵ Prof. J.R. Zaynalovning «Lizing va lizing operasialari» fanidan ma'ruza matni materiallari. 2008 y.

⁶ Financial leasing in Central Asia, IFC, SECO, 2011

bo'yicha esa 25foizni tashkil etgan. Yuqorida keltirilgan raqamlar asosida biz tadbirkorlik faoliyatining nisbatan yangi shakli bo'lgan lizing munosabatlarning rivojlanish doirasi va dinamikasini ko'rib o'tdik. Shulardan xulosa qilib, lizingga ta'rif berib o'tsak. Xalqaro moliya korporasiyasi mutaxassislari tomonidan lizing quyidagicha talqin qilingan: «Lizing bu mulkiy munosabatlar majmui bo'lib, bunda bir taraf (lizing beruvchi) boshqa bir taraf (lizing oluvchi)ning topshirig'iga ko'ra uchinchi taraf (mol yetkazib beruvchi) dan lizing shartnomasiga muvofiq lizing ob'ekti bo'lgan mulkni o'z mulki qilib sotib olib, uni to'lash asosida lizing shartnomasida belgilangan shartlar bilan vaqtinchalik foydalanish va egalik qilish uchun lizing oluvchiga beradi». Lizingga berilgan bu ta'rifda lizingning mulkiy munosabatlar majmui va bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan foyda olish istagining mahsuli ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, yevropa federasiyasining lizing bo'yicha milliy assosiasiyasi tomonidan lizingga berilgan ta'rifi ham e'tiborga molikdir, ya'ni «Lizing – bu ijarachining ishlab chiqarish maqsadida zavod, sanoat tovarlari, uskunalar va ko'chmas mulklardan foydalanish bo'yicha ijara shartnomasi bo'lib, bunda mazkur tovarlar ijaraga beruvchi tomonidan sotib olinib, u mulkka bo'lgan egalik qilish huquqini saqlab qoladi». Ushbu ta'rifda lizing ijara shartnomasi sifatida baholanib, uning huquqiy jihatlariga e'tibor qaratilgan. Lizingni ta'riflashda dastlab uning mulkiy munosabatlar ekanligini e'tiborga olib, bu ta'rifda unda ishtirok etayotgan barcha sub'ektlarning mavqei va manfaatlari o'z ifodasini topishi kerakdir. Shu nuqtai nazardan olib qarajak, Sh.U. Haydarov, X.A. Ortiqov va X.A. Tuxsanovlar o'zlarining asarlarida lizinga quyidagicha ta'rif berib o'tishgan. “Lizing deganda bir taraf (lizing beruvchi) boshqa bir tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga muvofiq lizing ob'ekti bo'lgan mulkni o'z mulki qilib sotib olib, uni lizing oluvchiga haq evaziga lizing shartnomasida belgilangan shartlar bilan vaqtinchalik foydalanish va egalik qilish uchun hamda shartnoma tugagandan so'ng lizing ob'ektini sotib olish huquqi bilan beriladigan mulkiy munosabatlar majmuidir”⁷.

⁷ Haydarov Sh.U, Ortiqov X.A, Tuxsanov X.A. Lizing: Tan olish, baholash va uning hisobi.- T.: «NORMA» MCHJ,

Ushbu ta'rifda lizingning o'ziga xos xususiyati, ya'ni bu munosabatlarda uch sub'ektning ishtirok etishi hamda mulkchilik huquqining o'zgarishiga alohida to'xtalib o'tilgan. Xorijiy adabiyotlarda mutaxassislar lizingga ta'rif berishda uning lug'aviy ma'nosiga ham e'tibor berishgan (inglizcha "lease" fe'lidan olingan bo'lib, "mulkni ijaraga berish" yoki "mulkni ijaraga olish" ma'nolarini anglatadi). Ba'zi manbalarda ta'kidlanishicha, mashina, jihoz, transport vositalari va boshqa ishlab chiqarishga taalluqli harakatlanuvchi mulkni uzoq muddatli ijaraga olish lizing sifatida e'tirof etilgan⁸. Boshqa bir adabiyotda lizing deganda ma'lum bir muddatga to'lov asosida mulkni vaqtinchalik egalik qilish va undan foydalanish uchun ijaraga berish munosabatlari tushuniladi⁹, deb ta'riflangan. Bu ta'riflarda lizingga asosan ijara munosabati sifatida yondashilib, uning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor berilmagan.

M.I. Leshenko tomonidan lizingga berilgan ta'riflar yuqoridagilardan bir muncha farq qiladi. Uning fikricha lizing – bu shunday tovar kreditiki u lizingga beruvchidan lizingga oluvchiga turli shakldagi mulk (qurilma, uskuni, mashina, kema va hokazo)ni foydalanishga berilishi bilan an'anaviy bank ssudasidan farq qiladi. Lizingga beruvchi ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)dan mulkni to'liq qiymati bo'yicha egaligiga olib moliyaviy xizmat ko'rsatadi, lizingga oluvchi esa ushbu qiymatni davriy ravishda to'lov (badal)lar hamda kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni birgalikda to'lab qoplaydi¹⁰. Bu yerda lizingning o'ziga xos xususiyati mulkka egalik qilish huquqida namoyon bo'ladi. Mulikka egalik qilish huquqi lizing muddati mobaynida to'liqligicha lizingga beruvchida bo'ladi. Bu huquq lizingga oluvchiga faqatgina shartnomada ko'rsatilgan muddatda kelishilgan to'lovlar butunlay to'langandan keyingina o'tadi. Bularning barchasi lizing operatsiyalarining lizing bozori ishtirokchilari uchun naqadar foydali ekanligidan dalolat berib turibdi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib, lizingga

⁸ Джуха В.М. Лизинг. Серия «Учебники, учебные пособия». -Ростов н/Д: «Феникс», 1999. стр 56.

⁹Лизинг: Основы теории и практики: учебное пособия/ В.А. Шабашев, Е.А. Федулова А.В. Едошкин; под. ред проф. Г.П. Подшиваленко – 3-е изд. перераб и оп. – М.: кнорув, 2007.

¹⁰ Лещенко М.И. Основа лизинга: Учеб. пособие ч-е изд. перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2004


quyidagicha ta'rif berib o'tamiz: «Lizing – bu vaqtinchalik bo'sh turgan yoki jalb qilingan moliyaviy vositalarni investisiyalashni o'zida aks ettirib, bunda lizingga beruvchi ma'lum bir sotuvchidan mulkiy shartnomada kelishilgan mol-mulkka egalik qilish va ushbu mol-mulkni vaqtinchalik foydalanganlik uchun to'lov asosida oxirida xarid qilish huquqi bo'yicha lizingga oluvchiga taqdim etish majburiyatini oladi». Shu o'rinda 1988 yil 28 mayda Ottavada qabul qilingan Xalqaro moliyaviy lizing to'g'risidagi konvensiyaning (UNIDRUA) iqtisodiy fanida shakllantirilgan «lizing» atamasiga to'xtalib o'tsak. Fikrimizcha u lizingning eng to'liq ta'rifi bo'lib, quyidagicha ifodalangan.

Lizing - bunda bir taraf (ijaraga beruvchi):

1) boshqa taraf (ijaraga oluvchi)ning ko'rsatmasiga binoan ijaraga beruvchi uchinchi taraf (mol yetkazib beruvchi) bilan ijaraga oluvchi tomonidan tasdiqlangan shartlarga muvofiq uskunalar, mol-mulk yoki asboblarni sotib olish to'g'risida shartnoma (mol yetkazib berish to'g'risida kontrakt) tuzadi;

2) ijaraga oluvchi bilan kontrakt (ijara shartnomasi, lizing kelishuvi) tuzadi va ijra haqini to'lash sharti bilan unga uskunadan foydalanish huquqini taqdim etadi.

Lizingning an'anaviy chizmasi quyida 1.1.1-chizmada keltirilgan.



1.1.2-chizma. Lizing operatsiyalari ketma-ketligining an'anaviy chizmasi¹¹

Bu yerda: 1-lizing kelishuvining tuzilishi; 2-lizing ob'ektini yetkazib berish; 3-lizing ob'ekti berilganligi uchun to'lov; 4-lizing haqlari uchun to'lov. Mol-

¹¹Лещенко М.И. Основа лизинга: Учеб. пособие ч-е изд. перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2004

mulkni qo`lga kiritish, unga egalik qilish va foydalanish, shuningdek tasarruf etish sohasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarning yig`indisi bo`lgan lizingning mazmunini o`rganayotganda uning pul va tovar shaklida ro`yobga chiqadigan kredit munosabatlariga asoslangan mulkiy munosabatlar yig`indisi ekanligiga ham alohida urg`u berishimiz kerak. Shu o`rinda D.G`.G`ozibekov boshchiligidagi bir guruh mutaxassislarning quyidagi fikriga e`tibor beramiz. «Lizing munosabatlarining asosini moliyaviy munosabatlar, shu jumladan kredit va ijara munosabatlari yig`indisi tashkil etadi, shular yordamida zamon va makonda kapitalning haqiqiy qiymatini saqlash yoki ko`paytirish maqsadida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash jarayoni sodir bo`ladi». Garchi lizing munosabatlarining asosini kredit munosabatlari tashkil etsada. ular o`rtasida muayyan tafovutlar ham mavjud. Shunday qilib, tadqiqotlarning ko`rsatishicha, lizing munosabatlari kredit munosabatlari hamda ijara bilan ma`lum bir umumiylikka ega bo`lsa ham ko`pgina ko`rsatkichlar jihatidan ulardan mutlaqo farq qiladi. Lizing, avvalo o`zining mazmuni, shakli, sub`ektlar doirasi, iqtisodiy samaradorligi va soliqqa tortish tizimi kabi ko`rsatkichlari bilan oddiy kredit munosabatlaridan farq qiladi.

1. Moliyaviy jihatdan: bir vaqtning o`zida ham uskuna xarid qilinadi, ham moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelmaydi. Tadbirkorning o`z mablag`lari hamda jalb qilingan mablag`lari o`rtasidagi nisbat ijobiy saqanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga kelgan talabdan kelib chiqqan holda, qo`shimcha yoki yangi texnika xarid qilish muammosini operativ tarzda hal qilish imkonini beradi. Bu ishlab chiqarish quvvatlarining samaradorligini oshiradi, mablag`lar daromad keltiruvchi sohaga yo`naltiriladi. Lizing to`lovlari baholar indeksiga bog`liq bo`lmaydi, shuning uchun ijaradan farqli o`laroq, shartnoma amal qilish muddatida o`zgartirilmaydi. Lizing beruvchi o`z faoliyati davomida bir qator imtiyozlarga ega bo`ladi va shuning uchun lizing to`lovlarini amalga oshirishda lizing oluvchiga bir qator qulayliklarni yaratib beradi.

Kredit va lizing munosabatlarining eng muhim farqlari¹²

Ko`rsat kichlar	Kredit	Lizing
Sub'ektlar	Kredit beruvchi va oluvchi	Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi), lizing beruvchi va lizing oluvchi
Moliyalash tirish	Pul vositalari kredit shartnomasi bo'yicha bevosita kreditoluvchining hisob raqamiga kelib tushadi	Rasman moliyalashtirish yuz bermaydi (lizing beruvchi lizing ob'ektini sotib oladi va uni lizing oluvchiga beradi)
Garov ta'minoti	Garov ta'minoti qiymati bank tomonidan belgilanadi (odatda kredit qiymatining 125% hisobida)	Garov ta'minoti kattaligini har bir lizing kompaniyasi mustaqil ravishda o'rnatadi.
Nazorat	Ta'sir vositalarining yo'qligi sababli vositalarning maqsadli sarflanishini nazorat qilib bo'lmaydi	Lizingga aniq kelishilgan mulk (qurilma, uskuna, mashina va h.) berilishi sababli vositalar ustidan nazorat kafolatlangan
Yo'naltirilishi	Investitsiyalar istalgan tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltiriladi	Investitsiyalar ishlab chiqarishni faollashtirishga, ishlab chiqarish quvvatini moderizatsiyalash va rivojlantirishga yo'naltiriladi.
Ob'ektga egalik huquqi	Kreditga sotib olingan mulkka egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqi kredit oluvchiga tegishli	Lizing shartnomasi amal qilish davomida, lizing ob'ekti lizing beruvchining mulki hisoblanadi, lizing oluvchi esa ushbu ob'ektdan foydalanish huquqiga ega. Lizing shartnomasining muddati tugagach va barcha to'lovlar to'langandan keyin, lizing ob'ekti to'liq lizing oluvchining mulkiga aylanadi
Foizlarning to'lanishi	Odatda, har oyda ma'lum bir stavkada amalga oshiriladi	Har oy yoki har chorakda amalga oshiriladi. Har bir lizing ob'ekti uchun alohida yondashiladi. Lizingto'lovlari lizing oluvchining daromadiga qarab bir-biridan farq qilishi mumkin
Moliyalash- tirish kattaligi	Odatda, xarid qilinayotgan ob'ektning to'liq qiymati qamrab olinmaydi. Kredit oluvchi qisman o'z mablag'ini ham qo'llashi talab qilinadi.	Lizing ob'ekti narxining lizing beruvchini tomonidan to'liq qoplanishi ko'zda tutilgan.
Soliq sohasidagi afzallik lar	O'rta va uzoq muddatli kreditlarda daromadning soliq solinadigan bazasini belgilashda foizlar ayirib tashlanmaydi	Lizing shartnomasi amal qilish muddatida lizingga olingan mulk soliqdan ozod qilinadi. Daromadning soliqqa tortiladigan bazasini aniqlashda lizing oluvchi qonunchilikka muvofiq quyidagilardan ozod bo'ladi: A) lizingga olingan asosiy vositalarning amortizatsiya to'lovlari summasi. B) lizing shartnomasi amal qilish muddatidan qat'iy nazar lizing bo'yicha foizlar.

2. Investision jihatdan: korxonalar mol-mulkni lizingga olishda uni kredit hisobiga harid qilishda bir qator qulayliklarga ega. Jumladan, lizing ob'ekti garov sifatida ishtirok etgani uchun unga qo'shimcha ta'minot turi talab etilmaydi. Talab

¹² G'ozibekov D. G., Sobirov O.Sh., Mo'minov A.G., Quljonov O.M. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. – T.: «Fan va texnologiya», 2004. 90-bet


etilgan taqdirda ham bu kreditga qaraganda birmuncha kam summani tashkil etadi. Lizing lizingga beruvchi mablag`ini to`liq qaytarilishini kafolatlaydi. Chunki, lizing ob`ekti lizingga beruvchining balansida aks etadi va shartnoma muddati tugagunga qadar lizing kompaniyasining mulki hisoblanadi. Lizing boshqa investision instrumentlarga qaraganda kamxarjdir. Buning natijasida iqtisod qilingan mablag`lar qo`shimcha investisiyalarga yo`naltirilishi mumkin.

3. Tashkiliy va ekspluatasiya qilish jihatidan: lizing asbob-uskuna, texnika, mashina va mexanizmlar narxining to`liq summasini to`lamasdan turib, ulardan foydalanish imkonini beradi. Lizingga olingan uskunani ishlatib, foyda ko`rish va bu foyda hisobidan uskunaning narxini to`lash mumkin.

4. Servis xizmatlar: lizingga oluvchi lizing ob`ekti bilan birgalikda bir qator servis xizmati turlarini ham olishi mumkin. Bular sug`urta transportirovka, uskunani o`rnatish, kafolatli xizmat, profilaktika va boshqa xizmat turlaridir.

5. Buxgalteriya hisobi: lizing bo`yicha xarajatlar joriy xarajatlar tarkibiga va mahsulot tannarxiga kiritiladi, bu soliqqa tortiladigan foyda mikdorining kamayishiga olib keladi. Lizing yuqorida qayd etilgan afzalliklari unda bir qator muhim funksiyalar mujassamlashganligini anglatadi. Lizingning eng asosiy funksiyasi moliyaviy funksiya hisoblanib, u tadbirkor (lizingga oluvchi)ni lizing ob`ektiga uning qiymatini bir yo`la to`lashdan ozod etishda va unga moliyaviy vositachi (lizing kompaniyasi) mablag`i hisobidan lizing krediti berishda namayon bo`ladi. Lizing munosabatlari lizingga oluvchiga hech qanday pul mablag`i qulay lizing mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega bo`lish imkoniyatini yaratadi. Lizingga beruvchining balansida lizing mulki qiymati ko`rsatilgan taqdirda lizingga oluvchi lizing mulki qiymatini hisobga olmagan holda o`zining kapital va joriy aktivlarini baholashi mumkin. Lizingning ushbu funksiyasi lizingga oluvchiga hech qanday sarflarsiz ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratadi. Bunday tashqari, ishlab chiqarish funksiyasi lizingning ikkinchi muhim jihati hisoblanadi, u korxonada ishlab chiqarish salohiyatini tezkorlik bilan hal etishda lizing ob`ektini sotib olish yo`li

bilan emas, balki ijara shartlari asosida vaqtinchalik olib, yangi uskunani faol harakatga tushurishda namayon bo`ladi.



1.1.2-chizma. Lizingning funksiyalari¹³

Lizingning yuqoridagi ikki funksiyasi bilan bir qatorda yana sotish funksiyasini ajratib ko`rsatish mumkin. U iste'molchilar doirasini kengaytirish va mazkur vaqtda shunday lizing mulkini olishga imkon bo`lmaganlarni ishlab chiqarish sohasiga sotish uchun yangi bozorni egallash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, lizing tadbirkorlik miqyosini kengaytirish, davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, mulk qiymatini to`lashda namayon bo`ladigan innovatsiya funksiyasini amalga oshirish uchun sharoit yaratadi, bular yordamida raqobat munosabatlari rivojlanadi. Lizingning sotish funksiyasi lizing mulkini ishlab chiqaruvchi (lizingga oluvchiga yetkazib beruvchi)ga xos.

1.2 Respublikamizda lizing xizmatlarini amalga oshirishning huquqiy asoslari.

Lizing mexanizmining yuqori samaradorligini ta'minlovchi omillardan biri lizing xizmatlari bozori chegaralarini belgilashda ishonchli huquqiy bazaning mavjudligidir. Mamlakatimizning lizing munosabatlari shakllanishining dastlabki

¹³ Лещенко М.И. Основа лизинга: Учеб. пособие ч-е изд. перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2004

bosqichida lizing bo'yicha qonunchilikning mavjud emasligi va buning natijasida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanmaganligi kuzatilgan.

Keyingi bosqichda lizing operasialari maxsus me'yoriy va huquqiy hujjatlarsiz xuddi ijara munosabatlaridek olib borilgan. Bu esa lizing jarayoni ishtirokchilarining risk darajasini oshirgan. So'nggi bosqich lizing kelishuvlarining maxsus huquqiy bazasini faol yaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, Respublikamizda lizing munosabatlari institutlarini shakllantirish 1995 yil, ya'ni lizing operasialarini olib borish bo'yicha me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilingunicha boshlab yuborilgan edi. Mamlakatimizda hozirgi kunda ichki lizing bitimlarining fuqarolik huquqiy tartibga solishda avvalo O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va «Lizing to'g'risida»gi Qonun (1999 yil 14 aprel)dan foydalanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi (588-modda)ga muvofiq ishlatilmay turgan har qanday ashyo lizing ob'ekti bo'lishi mumkin, ammo u tadbirkorlik faoliyati uchun yaroqli bo'lishi kerak. yer maydoni va boshqa tabiiy ob'ektlar bundan mustasno. Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida lizing ob'ekti keng talqin etilmagan. Bu keyinchalik O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi Qonuni (3-moddasi)da bartaraf etilib, lizing ob'ektiga quyidagicha ta'rif berilgan:

«Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy majmualar, binalar, inshootlar, uskunalari, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk lizing ob'ektlari bo'lishi mumkin. yer uchastkalari va boshqa tabiiy ob'ektlar, shuningdek muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo'lishi cheklangan boshqa mol-mulk lizing ob'ektlari bo'lishi mumkin emas». Lekin bu yerda ham muomalada ta'qiqlangan yoki muomalaning alohida tartibi belgilangan ko'char yoki ko'chmas mulklar qayd etilmagan.

Lizing biznesining o'ziga xos xususiyati ham lizing bitimining ta'minlanishida lizing ob'ektining muhim ahamiyatga egaligidadir. U lizing

shartnomasining butun muddati mobaynida lizingga beruvchining mulki bo`lib qoladi. Agar olinayotgan mulk lik vidli bo`lmasa, lizingga beruvchi to`lov qobiliyatining mavjud bo`lmaslik riskining oldini olish yoki pasaytirish uchun lizing bitimining ta`minlanishini talab etish lozim. Lizing bitimini ta`minlash qimmatli qog`ozlar topshiriqnoma, bank yoki boshqalarning kafolati kabi turlarda bo`lishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi «Lizing to`g`risida»gi qonunda lizing ob`ekti bilan bog`liq risklar ko`rsatib o`tilgan bo`lib, bu risklar qanday holatlarda lizingga oluvchi yoki lizingga beruvchi zimmasida bo`lishi batafsil ko`rsatilgan.

O`zbekiston Respubliasi Fuqarolik Kodeksi va «Lizing to`g`risida»gi Qonunida lizing sub`ektlariga ta`rif berilgan bo`lib, unga ko`ra lizingga oluvchi deganda lizing ob`ektini o`z tasarrufi va foydalanishiga oluvchi shaxs tushuniladi, lekin garchi lizing ob`ektini vaqtincha foydalanish hamda sublizingga uchinchi shaxsga lizingga beruvchining yozma roziligi bilan berishga ruxsat berilsa-da, lizingga oluvchining lizing mulkini qisman tasarruf etish huquqi ifodalanmagan.

O`zbekiston Respubliasida amaldagi mavjud qonunchilikda lizing to`lovlari xususidagi fikrlarga e`tibor qaratamiz. O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (590-moddasi)da «Lizing to`lovi lizingga beruvchining lizing ob`ektini sotib olish uchun qilgan xarajatlarining hammasi yoki ko`p qismi, shuningdek lizing ob`ektini yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holda keltirish bilan bog`liq boshqa xarajatlari lizingga oluvchi tomonidan qoplanishi hamda lizingga beruvchining daromadidan iborat bo`ladi». O`zbekiston Respubliasi «Lizing to`g`risida»gi Qonuni (22-moddasi)da ham lizing to`loviga shunday ta`rif berilgan bo`lib, ushbu ta`riflardan kelib chiqib lizing to`lovlari jahon tajribasiga to`liq mos kelishini va quyidagi unsurlardan tashkil topishini aytish mumkin.

- 1) lizing bitimini amalga oshirish uchun lizingga oluvchi jalb etadigan kredit resurslari uchun to`lov;
- 2) lizing mulki amortizasiyasi;

- 3) komission mukofot;
- 4) risk mukofoti;
- 5) lizingga beruvchi lizingga oluvchiga ko`rsatgan qo`shimcha xizmati uchun to`lov;
- 6) agar lizing ob`ekti lizingga beruvchi tomonidan sug`urtalangan bo`lsa, unga lizing mulkini sug`urtalagani uchun to`lov.

Shunisi ham muhimki, qonun lizing shartnomasi taraflariga lizing to`lovlari miqdori va davriyligini o`zlari belgilash huquqini beradi.

Shartnomada ishlab chiqarishning o`ziga xos jihatlari bilan bog`liq holda lizing to`lovlarining har qanday qulay jadvali ko`rsatilishi mumkin. Masalan, g`alla o`rinish bilan shug`ullanadigan fermer xo`jaliklari lizing to`lovlari asosiy qismini faqatgina iyul, avgust va sentyabr oylarida mumkin va h.k.

Lizing biznesi doirasini kengaytirish maqsadida «Lizing to`g`risida»gi Qonunda lizing ob`ektining jadallashtirilgan amartizasiyasi qo`llash imkonini oshirish kerak. Lizing shartnomasi qatnashchilarining o`zlariga amortizasiya stavkasini tabaqalashtirish imkonini berish hamda qonunchilikdagi amortizasiyaning me`yordan ortiq miqdorini soliqqa tortiladigan bazaga qo`shmaslik lozim.

Bundan tashqari, O`zbekiston Respublikasi «Lizing to`g`risida»gi Qonunda xalqaro lizingni rivojlantirish, soliqqa tortish bo`yicha qo`shimcha imtiyozlar berish, investisiya faoliyatini sug`urtalash, xorijiy lizingga beruvchilarning kafolatlari va ularning huquqini himoya qilish choralarini ishlab chiqish hamda kichik va o`rta biznes korxonalarini loyihalarini moliyalashtirish jarayonida lizing samaradorligini baholash usullariga alohida e`tibor qaratib, ularni iloji boricha alohida moddalarda ifodalash lozim.

Mamlakatimizda xam lizing xizmatlarini maxsus ravishda rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan me`yoriy hujjatlar lizing infrastrukturasi yanada takomillashtirish asos bo`lib xizmat qilmoqda. Jumladan, 2002 yil 28 avgustda qabul qilingan «Lizing faoliyatlarini rivojlantirishni yanada rag`batlantirish chora-

tadbirlari to'g'risida»gi 3122- sonli Prezident Farmoni mamlakatimiz lizing sektorini rivojlantirishga to'siq bo'lib kelgan va lizing operatsiyalarini soliqqa tortishdagi muammolarni bartaraf etishga keng imkoniyat yaratib berdi. Farmonga binoan 2002 yilning 1 sentyabridan boshlab:

* lizing to'lovlari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilindi;

* lizing berish uchun Resublikamiz hududiga olib kelinadigan texnologik uskunalar vakil bankning tegishli tasdig'i mavjud bo'lgan xolda, bojxona to'lovi va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etildi.

* lizingga beruvchining soliqqa tortish chog'ida u lizinga berish uchun mulk xarid qilishga olgan kreditlar foizi hamda belgilangan boshqa to'lovlarning summasi uning jami daromadidan chegirib tashlanadi;

* lizingga oluvchi lizing shartnomasi amal qiladigan muddatgacha lizinga beriladigan mulkka soliq to'lashdan ozod qilindi.

Lizing operatsiyalarini soliqqa tortish jarayonini o'rganishda mamlakatimizda 2008 yil 1 yanvardan amalga kiritilgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi xam muxim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Soliq kodeksining 134-moddasiga binoan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijara (lizing)ga berishdan olinadigan daromad lizinga beruvchining foizi daromadi bulib hisoblanadi.

Kodeksning 129-modda 13-bandiga muvofiq, lizinga beruvchi lizing tulovining kismi tarikasida olgan ob'ekt qiymatining qoplamasi lizinga beruvchining daromadi sifatida qaralmaydi.

Shuningdek «Erlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi» 3932-sonli Prezident Farmoniga asosan tashkillashtirilgan ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyalari maxsus suv xo'jaligi qurilish va foydalanish tashkilotlarini hamda suvdan foydalanuvchilar uyushmasini meliorasiya texnikasi bilan ta'minlanganda besh yil muddatga quyidagi to'lovlardan ozod etilmaydi:

- meliorasiya texnikasini yetkazib berishni moliyalashtirish manbalarini yanada oshirish maqsadida ajratilayotgan mablaglarni umumdavlat va maxalliy soliklaridan;

- lizing asosida keltirilayotgan meliorasiya texnikasini bojxona to'lovlaridan (bojxonani rasmiylashtirish uchun to'lanadigan yig'imlardan tashqari).

Ma'lumki, Soliq Kodeksining 199-moddasi 3-bandida mol-mulkni moliyaviy ijara (lizing) ga berish tovar (ish, xizmat)larni realizasiya qilish aboroti deb e'tirof etiladi hamda QQS ga tortiladi deb bayon kilingan. Kodeksning 204 moddasiga asosan, mol-mulk moliyaviy ijaraga, shu 41 jumladan lizinga berilgan takdirda, soliq solinadigan baza QQS summasini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktiv qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi. Moliyaviy ijara (lizing) sharnomasining ijaraga beruvchi (lizinga beruvchi)ning foiz tarikasidagi daromadiga tegishli qismi bo'yicha xizmatlar QQS dan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar jumlasiga kiradi.

Ob'ekt qiymatini ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) oladigan ijara (lizing) to'lovining bir qismi sifatida qoplash tovar (ish, xizmat)larini realizasiya qilish oboroti bo'lib hisoblanmaydi va o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, QQS ga tortilmaydi.

Soliq kodeksida lizing operasiyalaridan yagona soliq tulovi quyidagi holda amalga oshiriladi, yani mol-mulkni moliyaviy ijara (lizin)ga beruvchi yuridik shaxslar uchun moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi tovar foizli daromad summasi tovar (ish, xizmat)larni realizasiya qilishdan tushgan tushum sifatida e'tirof etilib, solik solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga kiritiladi. Ob'ekt qiymatining ijaraga beruvchi (lizinga beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplanishi esa soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi.

Kodeksning 313-moddasiga e'tibor bersak, asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar uchun moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi:

- byudjetdan tashqari pensiya jamg`armasiga;
- Respublika yo`l jamg`armasiga;
- Maktab ta'limi Fondiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasi bulib hisoblanadi. Agarda mol-mulkni moliyaviy ijara (lizing)ga berish asosiy faoliyati bo`lmasa, bunday yuridik shaxslar yuqorida nomlari maqsadli fondlarga to`lovlarni amalga oshirmaydilar.

Lizingga beruvchilar avtotransport vositalarini quyida keltirilgan bandlarda ko`rsatilgan:

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo`llarini saqlash, ta'minlash, rekonstruksiya qilish va qurishni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan yo`l xo`jalik boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar mazkur ishlarni amalga oshirishda bevosita foydalanadigan avtotransport vositalari bo`yicha;
- faoliyatining asosiy turi yo`lovchilar tashish bo`lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo`lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi lisenziyaga ega bulgan avtotransport korxonalari - yo`lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bo`yicha;
- qirq tonnadan ortiq yuk ko`taradigan, olingan kon avtosamosvallari bo`yicha yuridik shaxslarga lizingga berish uchun avtotransport vositalarini olganda va (yoki) O`zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganda Respublika yo`l fondiga majburiy yig`imlardan ozod kilinadilar.

Avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O`zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig`im, ular O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro`yxatidan o`tkazilayotganda, qayta ro`yxatdan o`tkazilayotganda avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda (yuqoridagi holatlardan tashqari) taraflarning yozma kelishuviga ko`ra lizingga beruvchidan yoki lizingga oluvchidan undiriladi. Lizingga beruvchi O`zbekiston Respublikasining norezidenti bo`lgan takdirida, yig`im lizingga oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasining muddati tugagandan so`ng mazkur

lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo`lgan avtotransport vositasi kayta ruyxatdan utkazilayotganida takroran yig`im undirilmaydi.

Bundan tashqari, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga lizingga olingan mol-mulkning qiymatiga kamaytiriladi.

Lizing to`lovlari summasi lizingga oluvchining xarajatlari bo`lib, ular yalpi tushum solig`ini hisoblaganda chegirib tashlanadi.

Yalpi tushum solig`ini aniqlayotganda soliq solinadigan baza yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, lekin soliq solinadigan bazaning ko`pi bilan 25 foizi miqdoriga kamaytiriladi. Soliq solinadigan bazani kamaytirish texnologik asbob-uskunalarini foydalanishga joriy etilgan soliq davridan boshlab besh yil mobaynida amalga oshiriladi.

Demak, yuqorida keltirilgan ma`lumotlar shuni ko`rsatib turibdiki, kiritilgan o`zgartirishlar lizingning investision mohiyatini anglatadi.

Bu o`zgartirishlar O`zbekistonda lizingni rivojlantirishning mustahkam zaminini yaratib berdi. Bular asosida esa, ayniqsa kichik va o`rta biznes sub`ektlari uchun lizing qulay hamda nisbatan jalb etuvchan moliyaviy vosita sifatida xizmat qilishi mumkinligiga ishonch hosil qilindi.

Ma`lumki, respublika tijorat banklari ham bugungi kunda mamlakatda amalga oshirilayotgan lizing operasiyalarining faol ishtirokchilaridir.

Ular tomonidan bajarilayotgan lizing amaliyotlari O`zbekiston Respubliasi Adliya Vazirligida 1999 yil 20 iyulda 776-son bilan davlat ro`yxatiga olingan «O`zbekiston Respubliasi banklari tomonidan moliyaviy lizingni o`tkazish tartibi to`g`risida»gi Nizom talablari asosida tartibga solinmoqda.

Ushbu Nizom bugungi kunda respublikadagi amaldagi me`yoriy hujjatlarga o`zgartirishlar kiritilganligi munosabati bilan yangi tahrirda qayta ishlab chiqildi. Bundan tashqari, Markaziy bank boshqaruvining 2006 yil 21 oktyabrdagi 2516-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklarida lizing operasiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to`g`risida»gi Nizomi

ham tijorat banklarida lizing operatsiyalarini tashkil etishning huquqiy asoslari jumlasiga kiradi.

Respublikamizda lizing munosabatlarini yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar va imtiyozlar yaratish hamda uning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan holatlarni bartaraf etish, shuningdek qonunchilik hujjatlarini xalqaro andozalar talabalariga moslashtirish maqsadida yangi qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, 2004 yil 26 aprelda O'zbekiston Respubliasi Vazirlar Mahkamasining «Lizing xizmatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 199-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq 2004 yil 12 mayda O'zbekiston Respubliasi Moliya Vazirligining 74-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Buxgalteriya hisobida lizing operatsiyalarini aks ettirish tartibi to'g'risida»gi Nizom ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur Nizom buxgalteriya hisobida lizing va ijara operatsiyalarini aks ettirishning yagona uslubiy asosini belgilab beradi.

Yukorida keltirilgan ma'lumotlardan shu narsa ma'lum buldiki, lizing Uzbekistonda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning samarali shakli sifatida kabul kilinayotgan me'yoriy-xukukiy xujjatlar muntazam yangilanib turishi lozim.

1.3. Lizing operatsiyalarini amalga oshirishning rivojlangan mamlakatlar tajribasi

Rivojlangan mamlakatlar bozorida lizing moliyaviy dastak sifatida o'zining boshqa turdagi kredit va investisiyalardan qulayligi va samaradorligi bilan birmuncha ajralib turadi. Shunday qulaylikka ega bo'lgan lizing turlaridan biri bu "dabl-din" bo'lib uning afzalligi ikki va undan ortiq davlatlarning soliq imtiyozlaridan yahlit foydalana olish imkoniyati bilan izohlanadi. Masalan, 80-yillarda xalqaro lizing amaliyotda qator samalyotlar "dabl din" asnosida lizinga berilgan. Bu haqda AQSh va Buyuk Britaniya o'rtasida amlag oshirilgan.

Agarda lizing beruvchi mulk huquqida bo'lgan holatda Buyuk Britaniya soliq tizimiga bir muncha qulayliklari mavjud bo'lgan, AQSh soliq tizimiga ko'ra lizing beruvchi bunday holatda zarar ko'rgan, ularga lizing beruvchi ko'p jihatdan


mulkni boshqarish huquqida bo`lgan iqtisodiy jihatdan samarali hisoblangan.

Shunday qilib lizing kompaniyasi Buyuk Britaniyadan samalyotlarni sotib olishga va ularni AQSh lizing kompaniyalariga lizing va ijaraga berishgan, agarda o`z navbatida mahalliy havo yo`llariga bu samalyotlarni lizinga berishgan. Kuzatuv tahlillari asosida shuni takidlash mumkinki bugungi kunda bu turdagi lizingdan Fransiya va Germaniya, AQSh va Fransiya, Yaponiya va AQSh kabi davlatlar va boshqa ko`plab mamlakatlar foydalanishlari mumkin.

Lizing bozorini mintaqalar bo`yicha rivojlanishida so`ngi uch yilda Shimoliy Amerikada faoliyat ko`rsatgan lizing kompaniyalari rivojlanib dunyo bozorida peshqadamlik qilmoqdalar. Ushbu mintaqalar bo`yicha lizing bozorining ulushi va rivojlanishi tendensiyalari quyidagi 1.3.1-rasmda berilgan.

1.3.1-diagramma


Mintaqalar bo`yicha lizing xizmatlari dinamikasi, mlrd. AQSh dollar¹⁴



Evropada 2016 yilda ko`chmas mulk lizingi 163 mlrd.evro miqdoridagi hajmda bo`lib (Bu 2015 yilga nisbatan 18 foiz ko`proq), shu davrdagi uskunar lizingi hajmi o`zgarmagan holda 130 mlrd.evroni tashkil etdi (2014 yilga nisbatan 0,45 foizga o`sgan). yevropadagi jami asosiy vositalar investisiyalari hajmida lizing 12,5 foizni tashkil qiladi. Biroq bu ko`rsatkich mamlakatlar bo`yicha turlicha bo`lib, Gollandiyada 6,3 foizni tashkil etsa, Italiyada 6,7 foizga teng. yevropada

¹⁴ London Financial Group, Wite Clarce Group Global Leasing Report 2016.

kompyuter va ofis uskunalari lizing operasialari o`rtacha 12,5 foizga teng va 4 foizi yirik hamda qimmatli mulklar hamda qimmatli samalyotlar, kemalar va shu kabilar ulushiga to`g`ri keladi.



1.3.1-rasm. Mintaqalar bo`yicha lizing xizmatlari, foizda¹⁵

Keyingi yillarda ishlab chiqaruvchi va lizing kompaniyalari o`rtasida bitimlar tuzish keng ko`lamli tus olib ulgurmoqda. Bunday kelishuvlarga tayangan holda ishlab chiqaruvchi o`z mahsulotini sotish bilan birga lizingga taqdim etmoqda. Bu o`z navbatida uning savdo doirasining yanada kengayishiga sabab bo`layotgan bo`lsa, lizing tashkiloti bu holatda ishlab chiqaruvchining savdo tarmoqlari orqali lizingni yo`lga qo`ygan bo`lib bu turdagi lizing yo`nalishi “savdoga ko`mak” (sales-aid) nomini olgan.

Evropada kompyuter va ofis uskunalari lizing operasialari o`rtacha 12,5 foizga teng va 4 foizi yirik hamda qimmatli mulklar qimmatli samalyotlar, kemalar va shu kabilar ulushiga to`g`ri keladi. Lizing oluvchilar faoliyat turlari bo`yicha lizing bozori tahlili shuni ko`rsatadiki, lizingdan xamma turdagi korxonalar foydalanadi. Ishlab chiqarish sohasi vakillari bilan birgalikda qurilish va xizmatlar ko`rsatish sohalari vakillari ham lizing oluvchilar sirasiga kiradi. 2016 yilda lizing xizmati ko`rsatuvchilar sirasiga jami uskunalar lizingining 50 foizi to`g`ri kelgan.

¹⁵ London Financial Group, Wite Clarce Group Global Leasing Report 2016.


1.3.1-jadval

Dunyo mamlakatlarining lizing bitimlarida texnologik jihozlarning ulushi, foizda¹⁶

№	Davlatlar	2012	2013	2014	2015	2016
1	AQSh	17,1	21	22	22	22
2	Yaponiya	6,3	6,8	7,2	9,8	8,9
3	Germaniya	14,3	14,7	5,8	16,6	16,4
4	Koreya Respublikasi	4,8	8,7	8,5	8,1	9,8
5	Buyuk Britaniya	18,5	19,8	23,8	31	28,6
6	Fransiya	10,5	11,1	12,8	12,5	13,1
7	Italiya	13,1	12,3	10	9,4	11,7
8	Kanada	15,1	20,8	20,8	32	31
9	Avstraliya	12	27,5	27,5	40	40
10	Shvesiya	19,2	18,2	24,6	24,4	22,7

Lizing oluvchilar foaliyat turlari bo'yicha lizing bozori taxlili shuni ko'rsatadiki, lizingdan hamma turdagi korxonalar foydalanadi. Ishlab chiqarish soxasi vakillari bilan birgalikda ko'relish va xizmatlar ko'rsatish soxalari vakillari xam lizing oluvchilar sirasiga kiradi. 2015-yillarda xizmat ko'rsatuvchi soxalar sirasiga jami uskunalar lizingning 50 foizi to'g'ri kel gan. Dunyo mamlakatlarining lizing bitimlarida texnologik jihozlarning ulushi bo'yicha xalqaro reyting va taxlil markazlarining bergan malumotlarida so'ngi 10 yil ichida yangi 2005-2014 yillar mobaynida Buyuk Britaniya va Amerika Qo'shma Shtatlari yetakchi o'rinlarni egallab kelgan 2014 yil yakunlari bo'yicha ushbu davlatlar lizing bitimlarida texnologi jixatlarga tuzilgan bitimlar ulushi mos ravishda 22 va 28 foizlarni tashkil etgan.

¹⁶ London Financial Group, Wite Clarce Group Global Leasing Report 2016




1.3.2-rasm. Lizing bitimlarida texnologik jihozlarning ulushi yuqori bo'lgan davlatlar, foizi¹⁷

Dunyo mamlakatlari ichida 2013-2014 yillar lizing bitimlarida texnologik jihozlarning ulush yuqori bo'lgan Avstraliya hisoblanadi. Uning ushbu ko'rsatkich bo'yicha o'sish dinamikasini kuzatadigan bo'lsak, 2010 yilda 12 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2014 yilga kelib 40 foizni tashkil etgan. Bunga asosiy sabab, mamlakatlar texnologik jihozlarga bo'lgan talab oshgan. Kanada iqtisodiyotida ham, texnik jihozlarga bo'lgan talabning ko'payishi va ishlab chiqarishni modernizatsiyalash dasturlarining joriy etilish evaziga, texnologik jihozlarga tuzilgan lizing bitimlarini sanog'i ortgan bo'lib, 2013 yilda eng yuqori ulushga 32 foizga ega bo'lgan. Germaniya davlatlarida 2012 yilda pasayganligi va boshqa sohalarning ulushi ko'payganligidan dalolat beradi .

¹⁷ London Financial Group, Wite Clarce Group Global Leasing Report 2016

1.3.2-diagramma

Dunyo mamlakatlari ichida yalpi ichki mahsulotida lizing ulushi yuqori boʻlgan davlatlar , foizda¹⁸



Lizing xizmatlarida rivojlanishi ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ko'rsatkichi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Dunyo moliya va lizing bozorini o'rganuvchi xalqaro tashkilot „White clarke group global“ kompaniyasining yillik hisobotlari asosida shuni takidlash mumkinki, so'ngi 5 yillikda, 2010-2014 yillar mobaynida yalpi ichki mahsulotda lizing ulushi yuqori bo'lgan davlat Eshoniya hisoblanib, 2013-2014 yillarda mos ravishda yalpi ichki mahsulotda lizing ulushi 5,91 va 4,81 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha xalqaro reytingdagi navbatdagi davlat Shetsariya hisoblanib 2011 yilda 1,75 %ni tashkil etgan bo'lsa , 2014 yilda 3,30%ga yani ikki baravarga oshgan.

¹⁸ White Clarke Group Global “Leasing Report-2016”


II-bob. O`zbekistonda lizing operatsiyalarini amalga oshirish tizimi istiqbollari

2.1. O`zbekistonda lizing operatsiyalarini amalga oshirishning hozirgi holati

2018 yil yakunlari bo`yicha yangi lizing bitimlarining hajmi 2,6 trln.so`mni, lizing amaliyotlarining umumiy portfeli esa 4,0 trln.so`mni tashkil qildi, biroq umumiy portfelda O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy Bankining umumiy summasi 1 trln.so`mlik portfeli hisobga olinmagan. O`zbekiston lizing beruvchilarining reytingini tayyorlash jarayonida 47 ta lizing beruvchi (ulardan 15 tasi banklar hisoblanadi) lizing faoliyati bilan faol shug`ullanadi.

2.1.1-diagramma

Yangi lizing bitimlarini hajmining o`shish dinamikasi (mld.so`m)¹⁹




Yuqoridagi 2.1.1-chizmada 2012 yildan 2018 yilgacha bo`lgan oraliqdagi lizing bitimlarining hajmi dinamikasi keltirilgan. 2018 yil yakunlari bo`yicha yangi lizing bitimlarining hajmi 69,6% ga oshgan va 2634,4 mlrd.so`mni tashkil qilgan, bu o`tgan yilning xuddi shu davri bilan solishtirganda 1080,8 mlrd.so`mga ko`p. Shuningdek, 2017 yil yakunida O`zbekistonda valyuta siyosati erkinlashtirilganini ham inobatga olish lozim, bu chet el valyutalarining “so`m” milliy valyutasiga nisbatan kursini deyarli ikki baravarga oshirdi. Agar 2017 yil 4 sentyabrda dollar kursi 4210 so`mni tashkil qilgan bo`lsa, 5 sentyabrda O`zbekiston Respublikasi Markaziy Banki 1 AQSh dollari uchun 8100 so`m kursni

¹⁹ [http: www.ula.uz](http://www.ula.uz)

belgiladi. 2018 yilda, eng avvalo, qishloq xo`jalik sektori, ko`chmas mulk va avtotransport, xususan yuk avtotransporti sohasi bozor drayverlariga aylandi. Shuningdek texnologik uskunalar sektoridagi o`shish ham bozorning rekord hajmiga ta'sir ko`rsatgan.

2.1.2-diagramma

Yangi lizing bitimlari soni dinamikasi²⁰



Ushbu 2.1.2- chizmada lizing bitimlarining soni dinamikasining 2012-2018 yillar oralig`idagi ko`rsatkichlari berilgan. 2018 yilda tuzilgan lizing bitimlarining soni sezilarsiz darajada oshgan va 7771 ta bitimni tashkil qilgan. 2017 yil bilan solishtirganda yangi lizing bitimlarining soni qariyb 1% ga oshgan, aniqrog`i jami 42 ta bitimga ko`proqni tashkil qilganligini

Yangi lizing bitimlari hajmlarining o`shish tendensiyasi ishtirokchilar o`rtasida lizing bozorida quyidagi 2.1.1-jadvaldagi tarzda taqsimlandi.

²⁰ <http://www.ula.uz>

2.1.1-jadval

O`zbekistonda lizing bozori ishtirokchilarining ulushi²¹

	2014	2015	2016	2017	2018
Lizing kompaniyalari					
- mulk qiymati, mlrd. so`m	592,6	668,2	630,8	963,8	1 912,2
-ulush	71,7%	78,5%	64,8%	62,0%	72,6%
Banklar					
- mulk qiymati, mlrd. so`m	233,6	183,0	342,3	589,8	722,2
-ulush	28,3%	21,5%	35,2%	38,0%	27,4%
Jami	826,2	851,2	973,1	1 553,6	2 634,4

Yuqoridagi 2.1.1-jadvalda ko`rsatilgandek 2018 yil yakunlari bo`yicha lizing bozorining lizing beruvchilar o`rtasida taqsimlanish tendensiyasi o`zgargan, endi bozorning 73% lizing kompaniyalariga tegishli. Tijorat banklariga to`xtaladigan bo`lsak, 2017 yil yakunlari bilan solishtirganda, taqdim etilgan lizing xizmatlarining hajmi kamaygan va ularning bozordagi ulushi 27,4% ni tashkil qilgan.

2.1.2-jadval

O`zbekistonda lizing kompaniyalarining TOP – 5 taligi²²

№	Lizing kompaniyasining nomi	2018 yilda ko`rsatilgan lizing xizmatlarining hajmi (mlrd. so`mda)
1	«O`zagrolizing» AJ	758,4
2	«Uzbek Leasing International A.O.» AJ	241,2
3	«O`zavtosanoat-Leasing» MCHJ LK	223,4
4	«Qurilishmashlizing» RILK AJ	94,3
5	«Orient Invest Group» MCHJ	81,4

Bugungi kunda respublikada foliyat ko`rsatayotgan lizing kompaniyalarining xizmatlari hajmini tahlil qilganda yuqoridagi 2.1.2-jadvaldagi

²¹ <http://www.ula.uz>

²² <http://www.ula.uz>

ma'lumotlarga ega bo'ldik. Bunga muvofiq

“O`zqishloqxo`jalikmashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 30 oktyabrdagi 486-sonli qarori bilan tashkil etilgan. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 02 noyabrdagi 424-sonli qaroriga muvofiq Kompaniya faoliyati yanada kengaytirilgan hamda lizing loyihalarini imtiyozli shartlarda moliyalashtirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida “Qishloq xo`jaligini texnika bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash jamg`armasi” tashkil etilgan.

“O`zqishloqxo`jalikmashlizing” kompaniyasi tomonidan “Jamg`arma” mablag`lari hisobiga fermer xo`jaliklari, mashina-traktor parklari va «O`zagrokimyoximoya» aksiyadorlik jamiyatining hududiy korxonalariga lizing xizmatlari ko`rsatishda bir qator imtiyozli lizing shartlari belgilangan. Bu imtiyozlarga - lizing ob`ekti qiymatining 20 foizini oldindan to`lab berilishi, traktorlar va o`rim-yig`im texnikalarining fermer xo`jaliklariga 10 yil muddatga, MTPlar va «O`zagrokimyoximoya» aksiyadorlik jamiyatining hududiy korxonalariga 7 yilga lizingga berilishi hamda lizing foizi yillik miqdorining Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizidan oshmasligi kiradi

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 17 noyabrdagi PF-4857 - sonli “O`zagrotexsanoatxolding” aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish to`g`risida”gi Farmoniga muvofiq “O`zqishloqxo`jalikmashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasi firma nomi “O`zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati etib o`zgartirildi²³

Respublika mustaqillikka ega bo`lishining ilk yillarida, 90-yillar boshlarida, O`zR TIF MB, moliyaviy xizmatlar bozori yanada shakllanib borishini ta'minlash maqsadida, lizing kompaniyasini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Ushbu tashabbus, Respublika hukumati tomonidan qo`llab-quvvatlanishidan tashqari, jahondagi eng yirik moliyaviy institutlarda katta qiziqish uyg`otdi. Natijada,

²³ <http://www.agroleasing.uz>

O`zRVM 1995 yil 5 yanvardagi 6-sonli Qaroriga asosan xorijiy kapital ishtirokidagi "Uzbek Lizing Interneshnl A.O." xalqaro kompaniyasi tashkil etildi.

Bizning aksiyadorlarimiz quyidagilardan tashkil topadi:

- O`zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki - 35%
- Maybank (Malayan Banking Berhad), Malaysia - 35%
- O`zbek-O`mon Investision Kompaniyasi - 30%.

Bugungi kunda kompaniyaning ustav kapitali miqdori 9,113,588,786 sum tashkil etadi.

Bugungi kunda «Uzbek Lizing Interneshnl A.O.» o`shisi sayin uning mijozlari ham rivojlanib bormoqda, moliyalashtirilayotgan tarmoqlar ko`lami ham kengayib, geografik ko`lam esa kattalashib bomroqda. 2005 yildan boshlab hozirgi vaqtga qadar butun respublika bo`yicha Kompaniyaning sakkizta mintaqaviy vakolatxonasi ochildi. 2005 yilda Samarqand viloyatida vakolatxona ochildi, 2009 yildan boshlab «Uzbek Lizing Interneshnl A.O.» kompaniyasining Horazm viloyati hamda Farg`ona vodiysidagi vakolatxonalari ishga tushirildi. 2010 yilda Buxoro, Navoiy viloyatlarida va Qoraqalpog`iston respublikasidagi vakolatxonalar o`z faoliyatini boshladi. 2012 yilda Qashqadaryo viloyatida ham vakolatxona tashkil etildi. 2017 yilda kompaniyaning Djizzax, Syrdaryo va 2018 yilda Andijon, Farg`ona va Surxandaryo viloyatlarida xududiy vakolatxonalar ishga tushirildi²⁴

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 14-dekabrda PQ-531-sonli Qarori bilan «O`zavtosanoat-Leasing» MChJ ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyasi tashkil qilindi. 2007 yil kompaniya davlat ro`yxatidan o`tdi va moliyaviy faoliyatini boshladi. «Samarqand avtomobil zavodi» MChJ ning mahsulotlarini lizing asosida sotish orqali ushbu korxonaning rivojlanishiga o`z hissasini qo`sha boshladi. O`zbekiston lizing beruvchilar uyushmasi a`zosiga aylandi. 2008 yil og`ir yuk avtomobillarini sotib olish bo`yicha lizing loyihalarini

²⁴ [http: uzbekleasing.com](http://uzbekleasing.com)

moliyalashtirish boshlandi. III Xalqaro investitsion forum doirasida «O`zavtosanoat-Leasing» MChJ lizing kompaniyasi «2007-yilning yetakachi lizing kompaniyasi» deb topildi va diplom bilan taqdirlandi. Kompaniya korxonani avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi «Lizing» ni amaliyotga kiritdi. 2009 yil O`zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan yo`l-qurilish texnikalarini sotib olish bo`yicha lizing loyihalarini moliyalashtirish boshlandi. Yil yakunlari bo`yicha kompaniya lizing bitimlarini amalga oshirish bo`yicha eng yirik korxonada deb topildi. Kompaniya raxbariyati London va Berlinda o`tkazilgan hukumatlararo muzoqaralarda ishtirok etdi. 2010 yil «JV MAN Auto – Uzbekistan» MChJ QKda ishlab chiqarilgan yuk va maxsus transport vositalarini sotib olish bo`yicha lizing loyihalarini moliyalashtirish boshlandi.

«O`zavtosanoat» Aksiyadorlik Kompaniyasi MDH davlatlari orasida eng yirik kompaniyalardan biri bo`lib, u o`ziga «GM Uzbekistan» AJ, «JV MAN Auto-Uzbekistan» MChJ QK, «Samarqand Avtomobil Zavodi» MChJ va boshqa O`zbekistonning deyarli barcha hududida joylashgan 200 dan ortiq avtomobilsozlik sohasiga kiruvchi korxonalarni birlashtiradi.

«O`zavtosanoat» AK zavodlari yiliga 300 ming dona transport vositalarini chiqarish imkoniyatiga ega. Hozirgi kunda, ushbu zavodlarda yengil avtomobillar va avtobuslardan boshlab og`ir yuk tashuvchi avtomobillar va qurilish texnikalarigacha jami 110 turdan ortiq avtotransport vositalari ishlab chiqarilmoqda.

«O`zavtosanoat» AK tizimida 24 000dan ortiq ishchi-xodimlar ishlaydi. «Asaka» Aksiyadorlik Tijorat Banki O`zbekistonning barcha hududlariga kirib brogan va 1,4 mln.dan ortiq mijozlarga ega eng yirik banklardan biri hisoblanadi. Jahon bo`ylab 350 dan ortiq xorijiy banklar bilan aloqalarni o`rnatgan²⁵.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 18 iyundagi, № PF-2190-sonli Farmoniga muvofiq, xamda kelgusida qurilish soxasida lizing xizmatlarini rivojlantirish, qurilish tashkilotlarini zamonaviy qurilish texnikasi, mashina va

²⁵ <https://uzlk.uz>

mexanizmlar, kichik mexanizasiya vosita va maxsus transport bilan ta'minlash asosida ularning texnik bazasini kuchaytirish maqsadida, Respublika Ixtisoslashtirilgan Lizing kompaniyasi "Qurilishmashlizing" Aksiyadorlik Jamiyati tashkil etildi.

RILK (Respublika Ixtisoslashtirilgan Lizing Kompaniyasi) «Qurilishmashlizing» AJ o'z faoliyatini 2014 yil oktyabr oyidan boshlab, qurilish texnikasining lizingiga yo'naltirilgan. 2015 yil avgust oyidan, RILK «Qurilishmashlizing» AJ O'zbekiston lizing beruvchilar assosiasiyasi a'zosi bo'lib, uning xabariga ko'ra, Kompaniya O'zbekiston Respublikasidagi lizing operatsiyalari portfeli xajmi bo'yicha yetakchi beshta lizing kompaniyalar qatoriga kiritilgan.

Hech bir qurilish, bizning kunda, ishlar qiymatini pasaytiruvchi, va ularning samaradorliigi va sifatini oshiruvchi turli xildagi texnik qurilma va boshqa maxsus texnikalardan foydalanmay amalga oshirilmaydi. Bugungi kunda, bozorda turli xildagi qurilishga mo'ljallangan, yurtimizda va xorijda ishlab chiqarilgan texnikalar taqdim etilmoqda. Kasbiy foydalanishga mo'ljallangan biror bir texnika yoki agregat yetarlicha yuqori bo'lib, bunda dolzarb va to'g'ri qaror bu – qurilish texnikasini lizingga xarid qilishdir. Xozirda, lizing O'zbekistonda juda faol ravishda rivojlanib bormoqda.

Qurilish sektorida mashina va qurilmalarini yangilash, katta xajmdagi investisiyalarni talab qiladi. Lizing oluvchilar o'zlarining aylanma kapitallarini bunga jalb qilmay turib, dunyoning va o'z davlatlarining yetakchi ishlab chiqaruvchilaridan qurilmalarni lizingga olish imkoniyatiga egalar. Lizingga olinadigan qurilish maxsus texnikasi nafaqat xarid qilinadi, balki kompaniya daromadini sezilarlicha oshirishga imkon beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 269-moddasi "Mol-mulk solig'iga imtiyozlar" ga ko'ra, lizing oluvchi lizing ob'ekti bo'yicha mol-mulk solig'idan ozod qilinadilar. Bu moddaga binoan, yuridik

shaxslar mol-mulki solig`i hisoblanayotganda, soliqqa tortiladigan baza lizing shartnomasi muddati davomida, lizingga olingan mol-mulk narxigacha kamayadi.

Moliyaviy oqimlarni savodli va rejali boshqarish, lizing oluvchiga o`z aylanma kapitalini jalb qilmay turib, yo`l-qurilish texnikasini qo`lga kiritishni ta`minlaydi, va biznesni kengaytirish va natijada uning daromadlilikini oshirishga olib keladi.

Lizing lizing oluvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- amortizatsiyani hisoblash bo`yicha tezlashtirilgan usulni qo`llash;
- lizingga olingan aktivlarga egalik qilish bilan bog`liq risklarni kamaytirish;
- daromad solig`i xajmini qisqartirish;
- hisobni soddalashtirish va investision jozibadorlikka zarar yetkazmaslik.

RILK «Qurilishmashlizing» AJ barcha turdagi mulkchilik shakliga ega yuridik shaxslarga qurilish texnikasi, mashina va mexanizm, kichik mexanizasiya vositalari va maxsus transportni lizingga taqdim etadi. Xar bir lizing oluvchiga individual yondashuv, korxonaning xuquqni belgilovchi xujjatlarini operativ tarzda ko`rib chiqish, xamda kompaniya respublikaning deyarli barcha viloyatlarida taqdim etilishi mumkin bo`lgan regional tarmoqning mavjudligi, RILK «Qurilishmashlizing» AJ ning asosiy afzalliklarini ko`rsatadi.

Lizing kompaniyalarining qurilish-pudrat tashkilotlaridagi ishlab chiqarish jang`armalarini shakllantirishdagi muxim roli baxssizdir. Lizing oluvchi kompaniyasi uchun, lizing vositalarning tejamli va yanada samarali ishlatilishi uchun keng imkoniyatlar ochadi. O`zining egiluvchanligi va operativligi tufayli, lizing lizing oluvchiga xarajatlar rejasida eng tejamli va korxonaga uchun qo`shimcha daromad olishda eng foydali bo`lishi mumkin bo`lgan loyixa variantini topishga imkon beradi²⁶.

Orient Invest Group MChJ universal lizing kompaniyasi hisoblanadi. Kompaniya 2017 yilda tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik va jismoniy shaxslar uchun qulay lizing shart-sharoitlarini taklif etadi.

²⁶<http://qml.uz>

Kompaniyaning yangilanishi, modernizatsiya qilinishi uchun iqtisodiyotning real sektoridagi loyihalarni moliyalashtiradi yuridik shaxslarning asosiy fondlarini kengaytirish va jismoniy shaxslar uchun lizing xizmatlari keng doirasini taqdim etadi. Kompaniya orqali mijozlar asosiy vositalarni yangilash masalasini hal qiladilar, bugungi kunda biznesni rivojlantirish uchun ishonchli hamkorlardan biri hisoblanadi²⁷.


2.1.3-jadval. O`zbekistondagi lizing xizmatlarining hajmi jihatidan yuqori ko`rsatkichli banklar²⁸

№	Bank nomi	2018 yilda ko`rsatilgan lizing xizmatlarining hajmi (mlrd. so`mda)
1	«Uz PSB Bank» ATB	197,3
2	«Kapital Bank» ATB	124,1
3	«Asaka Bank» ATB	110,9
4	«TrustBank» XAB	76,2
5	«Ipoteka Bank» ATIB	73,8

O`zbekistondagi lizing xizmatlarining hajmi jihatidan yuqori ko`rsatkichli banklardan birisi bu “Uz PSB Bank” ATB hisoblanadi. 2.1.3-jadvaldan ko`rishimiz mumkinki bu bank 2018 yil 197,3 mlrd.so`mlik lizing xizmatlarini ko`rsatgan. Keyingi o`rinlarda “Kapital Bank” ATB 124,1 mlrd. so`m, “TrustBank” XAB 76,2 mlrd. so`m va so`ngi o`rinni “Ipoteka Bank” ATIB 73,8 mlrd. so`m so`mlik lizing xizmatlarini ko`rsatgan. Lizing beruvchilar TOP 10 taligining (5 ta lizing kompaniyasi va 5 ta tijorat banki) ulushi yangi lizing bitimlari hajmining 75,2% ni tashkil qilgan.

²⁷ <http://orientleasing.uz>


²⁸ <http://www.ula.uz>



■ Lizing kompaniyalar TOP 5 ligi ■ Banklar TOP 5 ligi ■ Qolganlar

2.1.3-chizma. 2018 yilda asosiy vositalar turlari bo`yicha lizing bitimlarining taqsimlanishi²⁹

Ushbu 2.1.3- chizmada asosiy vositalar turlari bo`yicha lizing bitimlarining foizlardagi taqsimotini ko`rishimiz mumkin. Bunda lizing kompaniyalari 53 % bilan yetakchilik qilmoqda, banklar TOP 5 ligi 22 % va qolganlari 25 % ni tashkil qilgan.




2.1.4-chizma. 2018 yilda asosiy vositalar bo`yicha lizing bitimlarining taqsimlanishi³⁰

Lizing bitimlarining asosiy vositalar bo`yicha taqsimlanishi lizing beruvchilar qanday lizing ob`ektlari bilan va qay darajada faol ishlashi haqida tasavvur beradi.

²⁹ <http://www.ula.uz>

³⁰ <http://www.ula.uz>

Oxirgi yillar ichida qishloq xo'jalik texnikasi va texnologik uskunalar lizing bozorining yirik segmentlari hisoblanmoqda. 2018 yilda qishloq xo'jalik texnikasining ulushi 31,2% ni, texnologik uskunalar ulushi 35,4% ni tashkil qilgan. Bu oxirgi yillarda sanoat korxonalarini modernizatsiyalash doirasida yuqori texnologik uskunalar bo'lgan talab oshib borayotganidan dalolat beradi. Texnologik uskunalar qismida bozorda quyidagilar talabga ega: qurilish texnikasi – 312,1 mlrd.so`m; qurilish materiallarini ishlab chiqarish uchun mo`ljallangan uskunalar – 120,7 mlrd.so`m; tibbiy uskunalar – 92,4 mlrd.so`m; savdo uskunalari – 51,6 mlrd.so`m. 2018 yil yakunlari bo'yicha texnologik uskunalar sektorida qiymati 931,9 mlrd.so`mlik yangi lizing bitimlari tuzilgan. Texnologik uskunalar ob'ektlarini lizingga berish hajmi bo'yicha lizing beruvchilar orasida «UzbekLeasingInternationalA.O.» AJ (170,2 mlrd.so`m) yetakchilik qilmoqda, undan keyingi o`rinlarda «KapitalBank» ATB (112,8 mlrd.so`m) va «Qurilishmashlizing» LK AJ (83,6 mlrd.so`m) kelmoqda.




2.1.5-chizma. Yangi lizing bitimlarining 2018 yilda tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi³¹

³¹ <http://www.ula.uz>

Qishloq xo`jalik sektorida tuzilgan yangi lizing bitimlarining summasi 822,3 mlrd.so`mni tashkil qiladi. Ushbu sektorda xizmatlarni taqdim etish bo`yicha lizing beruvchilar orasida respublika fermerlari uchun imtiyozli shartlarda lizing xizmatlarini taqdim etish bo`yicha «O`zagrolizing» ixtisoslashgan davlat lizing kompaniyasi (758,4 mlrd.so`m) yetakchilik qilmoqda, undan keyingi o`rinlarni «AsakaBank» ATB (49,5 mlrd.so`m) va «OrientInvestGroup» MCHJ (5,3mlrd.so`m) egallagan

Shu bilan birga lizingga ko`chmas mulk (19,1%) va avtotransport (14,3%) taqdim etish bilan bog`liq bitimlar hajmi ham sezilarli bo`lgan. Lizingga avtotransport vositalarini taqdim etish sohasida ham o`shish tomon ijobiy tendensiya kuzatilmoqda. Avtotransport sektoridagi yangi lizing bitimlarining hajmi 194,5 mlrd.so`mga oshib, 377,3 mlrd.so`mga yetgan, bu 2017 yil bilan solishtirganda ikki baravar katta ko`rsatkich hisoblanadi. Ushbu sektorda lizingga avtotransport vositalarini taqdim etishga ixtisoslashgan «O`zavtosanoat-Leasing» MCHJ davlat lizing kompaniyasi yirik lizing beruvchi hisoblanadi. Xususan, hisobot yilida «O`zavtosanoatLeasing» MCHJ LK tomonidan 168,6 mlrd.so`m miqdorida yangi lizing bitimlari tuzilgan, undan keyin «Uzbek Leasing International A.O.» AJ (32,8 mlrd.so`m) va «Orient Invest Group» MCHJ (30,8 mlrd.so`m) kelmoqda. Ko`chmas mulk sektorida ham yangi lizing bitimlarining summasi ikki baravar oshgan. O`tgan yil bilan solishtirganda ushbu ko`rsatkich 259,3 mlrd.so`mga oshgan va 502,7 mlrd.so`mni tashkil qilgan. Lizingga ko`chmas mulk taqdim etish sohasida banklar o`zini ko`rsata olgan, xususan «UzPSBBank» ATB (160,0 mlrd. so`m), «AsakaBank» ATB (49,0 mlrd. so`m) kabi banklar eng katta summani namoyish etgan, bu borada uchinchi o`rinni esa «IpotekaBank» AITB (42,5 mlrd. so`m) egallagan.



2.1.6-chizma. Bitimlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi³²

Respublika bo'ylab lizing amaliyotlarining taqsimlanishi yetarlicha bir tekis. Toshkent shahri va Toshkent viloyati bundan mustasno bo'lib, ularning ulushiga mamlakat bozorida amalga oshirilgan barcha yangi lizing amaliyotlarining 34,3% va 11,7% to'g'ri keladi. 2018 yil yakunlari bo'yicha respublikada Namangan viloyati (7,1%) va Qashqadaryo viloyati (7,0%) yetakchilik qilmoqda.

2.2. Milliy iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitlarida lizing munosabatlarini rivojlantirish

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda lizing imkoniyatlaridan yetarli darajada keng foydalanilmoqda, bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buni ichki bozorni qisqa muddatlarda sifatli va iste'molchi uchun arzon mahsulotlar bilan to'ldirishga muvaffaq bo'lgan qayta ishlovchi agrofimlar, qurilish materiallari, oziq-ovqat va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar misolida ayniqsa, yaqqol ko'rish mumkin. Lizing jihozlaridan foydalanish hisobiga qisqa muddatlar ichida joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yangi ish o'rinlarini yaratish, aholini keng iste'mol tovarlari bilan ta'minlashga katta imkoniyatlar tug'diradi.

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor

³² <http://www.ula.uz>

yo`nalishlaridan biri, bu qishloqlarda takomillashtirilgan zamonaviy loyihalar asosida yangi uy-joylar qurilishi va qishloq aholi punktlarini kompleks ravishda rivojlantirishdir. "Qishloqqurilishloyiha" institutining loyihalari asosida zamonaviy uy-joylar qurilishi respublikaning barcha hududlarida amalga oshirilmoqda. Buning uchun, ya'ni yangi turar-joylarni yaratish bo'yicha qurilish tashkilotlari tuzildi. Ular uchun lizing xizmati zamonaviy qurilish materiallari va texnika bilan ta'minlashning asosiy omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Respublikada olib borilayotgan qurilish-montaj ishlarining muntazam o'sib borayotgan ko'lamlarini ta'minlash va zamonaviy uy-joylar qurilishida yangi yig'ma texnologiyalardan foydalanishda, sifatli va qimmat bo'lmagan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi yangi korxonalarini foydalanishga topshirish va modernizasiya qilishda lizingga alohida o`rin ajratmoqda

Mutaxassis G.M.Davlatovanning fikricha, hozirgi vaqtda investisiya siyosatining samarali vositasi sifatida lizing to`qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun ham katta ahamiyat kasb etib bormoqda. O`zida kredit, investisiya va tashqi savdo operatsiyalarini mujassam qilgan o`ziga xos iqtisodiy tabiatga egaligi bilan mazkur faoliyat turi to`qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirishning muhim omiliga aylanishi muqarrardir.

Lizingning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli o`ziga xos mulkiy munosabatlar orqali belgilanadi. Mazkur faoliyat bilan shug`ullanish davomida lizing mulki, agar lizing shartnomalarida lizing oluvchining lizing mulkini sotib olish huquqi ko`zda tutilgan bo`lsa, lizing beruvchidan lizing oluvchining mulkiga aylanishi mumkin. Lizing bitimida lizing predmetiga yuridik huquq lizing beruvchiga beriladi, lizing oluvchiga esa iqtisodiy egalik huquqi beriladi. Lizing shartnomasining amal qilish muddati davomida jihozlar lizing beruvchining mulki bo'lib qoladi, demak, o`ziga xos aylanma harakat qilgan holda, uning kapitali lizing oluvchining ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadi. Lizing ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar, banklar bilan lizing kompaniyalari o`rtasidagi manfaatdorlikni samarali mujassamlashtirishga imkon beradi. Xo`jalik yurituvchi

sub'ektlar manfaatlari o`rtasidagi bog`liqlikning o`zaro muvofiqligi ular o`rtasidagi xo`jalik munosabatlarining barqarorligini anglatadi, bu esa o`z navbatida, ular ehtiyojlarini to`liq va har taraflama qondirilishiga yordam beradi.

AQSh, Yaponiya va G`arbiy yevropa hamda MDH mamlakatlarning lizingni rivojlantirish bo`yicha tajribasi lizing xizmatlari bozori iqtisodiyotning ishlab chiqarish sektorining mustahkamlanishiga, strategik muhim tarmoqlarni jadal rivojlantirish uchun sharoitlar yaratilishiga, ishlab chiqarish sohasiga kapital kirib kelishining jadallashuviga va YaIMning o`shishiga yordam berishini ko`rsatmoqda.

Ta`kidlash joizki, O`zbekistonda lizing xizmatlari bozorini rivojlantirishda Xalqaro moliyaviy korporasiya (XMK) dasturi katta yordam berdi, bunda lizing sektorini rivojlantirishga texnik ko`mak ko`rsatish bo`yicha muhim dastur amalga oshirildi va u 2009 yil mayda o`z nihoyasiga yetdi. XMKning lizing beruvchilar institusional salohiyatini rivojlantirish maqsadidagi loyihasi doirasida 13 o`quv moduli ishlab chiqildi, moliyaviy muassalarning 162 mutaxassisi esa qaltisliklarni boshqarish, moliyaviy tahlil va lizing operasialari monitoringi bo`yicha ta`lim oldilar. Respublikada lizing beruvchilar uchun ham, lizing oluvchilar uchun ham qulay bozor infratuzilmasi va qonunchilik bazasi yaratilgan.

Lizing xizmatlarining rivojlangan bozori ishlab chiqarish sohasiga kapital kirishini rag`batlantirgan va strategik muhim tarmoqlarni jadal rivojlantirish uchun sharoitlar yaratgan holda, iqtisodiyotning ishlab chiqarish sektorini yanada mustahkamlaydi. Rivojlangan mamlakatlarda lizingni qo`llab-quvvatlashda davlatning roli mamlakatning investisiya siyosatida tizim yaratuvchi omil bo`lib xizmat qiladi. G`arb kompaniyalarining mablag`larning qaytarilishiga qo`shimcha kafolatlar berilishi sababli lizingga qiziqishlari ortadi. Xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyotning investisiya ehtiyojlarining keskin o`shib borishiga va faqat an'anaviy moliyalashtirish kanallari hisobidan qoplab bo`lmaydigan innovasion jarayonlarning sur`atlariga bog`liq ravishda lizingga talab kattadir. Lizing munosabatlari ishlab chiqarishning bir qator muhim omillari ta`siri ostida

rivojlanadi, ular birgalikda, bir tomondan, lizing sub'ektlarining byudjetni shakllantirishda va shunga bog'liq holda, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining yechimini topishda ishtirokini ta'minlab bersa, boshqa tarafdin esa, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni va bozorni zarur mahsulotlar bilan ta'minlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning ko'p mamlakatlarida lizing biznesining qaror topishi va jadal tarqalishi asosida uch guruh omillar yotadi.

Makrodarajadagi omillar me'yoriy-huquqiy sohani shakllantirish bo'yicha makroiqtisodiy siyosat qonunlari va uning o'ziga xos tomonlari bilan bog'liq, mezodarajada lizing xizmatlarining mintaqaviy rivojlanish xususiyatlari ko'riladi, mikrodarajada korxonalar miqyosidagi ehtiyojlarni qondirish maqsadida ishlaydi.

Shuningdek, mamlakatda lizing ko'lamlarining o'sishiga to'sqinlik qiluvchi omillar ham mavjud bo'lib, ular soliq va buxgalteriya hisobotlari bo'yicha alohida qonunlar va me'yoriy-huquqiy normalarning tartibga solinmaganligi;

ba'zi turdagi mulklar (ko'chmas mulk) lizingi bo'yicha huquqiy va tashkiliy masalalarning nomuvofiqligi;

lizing predmetidan faqat tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish bilan cheklanib qolish;

mijozlar to'g'risida ma'lumotlarning kamligi; mamlakatda lizing statistikasini shakllantirish metodologiyasidagi kamchiliklardan iborat.

Biroq, mavjud kamchiliklarga qaramay, mahalliy lizing kompaniyalari o'rtasidagi raqobat kuchayib bormoqda, bu esa muvofiq ravishda xizmatlar sifatini oshirishga yordam beradi. Mahalliy lizing bozori uchun nafaqat hajmiy, balki sifat ko'rsatkichlarini ham o'zgartirish muhimdir. Yildan yilga lizing mulkining yangi turlari yaratilmoqda va ajralib chiqmoqda, ularga esa lizing oluvchilar o'rtasida ehtiyoj kattadir.

Lizing o'z oldiga quyidagi strategik jihatdan muhim maqsadlarni:

- lizing sohasida davlat investisiya siyosati samaradorligini takomillashtirish va samaradorligini oshirish;

- qayta ishlash sanoati va ishlab chiqarish va transport infratuzilmasini rivojlantirish;
- mamlakat iqtisodiyotiga tashqi va ichki investisiyalarni jalb etish va joylashtirish ishlarida rivojlanish institutlari bilan hamkorlik qilish kabilarni qo`yadi;

Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish bo`yicha vazifalarni amalga oshirish yo`lida yuqori qo`shilgan qiymatga ega yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarini yaratish va rivojlantirish hamda respublika iqtisodiyotiga investisiyalarni yanada ko`proq jalb etish maqsadlarida “Lizing-modernizasiya” maxsus taraqqiyot dasturini ishlab chiqish taklif etilmoqda. U lizing bitimlarining turli modellaridan foydalangan holda ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun maksimal darajada qulay sharoitlarni yaratishga yo`naltiriladi. Bunday modelning mohiyati lizing oluvchiga boshqa rivojlanish institutlari, tijorat tashkilotlari, korporativ sektor, industrial zonalar va biznes-inkubatorlari bilan hamkorlikda kompleks xizmat ko`rsatishdan iborat, bu esa lizing munosabatlari sifatini bir necha marotaba oshiradi.

“Lizing – modernizasiya” konsepsiyasini joriy etishni quyidagi modellar bo`yicha amalga oshirish tavsiya etiladi

- “kredit + lizing”;
- “equity + lizing”;
- “konsalting + lizing”;
- “venchur+lizing”;
- “hududiy lizing”;
- “korporasiyalar uchun lizing paketi”;
- “texnologii + jihozlar” sxemasi bo`yicha yuqori texnologik jihozlar importi.

Lizing xizmatlari bozorida yuz berayotgan o`zgarishlarni umumlashtirgan holda, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- marketing, logistika va injiniring lizingli investisiya loyihalarining tarkibiy va ajralmas qismlari bo`lib qolmoqda, ayniqsa, sanoatning qayta ishlash

tarmoqlarini rivojlantirishda texnologik yangilanish, innovasiyalar va ishlab chiqarish diversifikatsiyasi bilan bog`liq yirik masshtabli murakkab industrial va infratuzilmaviy loyihalarda;

- O`zbekistonda ayrim jihozlar yetkazib beriladigan an'anaviy lizing konsepsiyasidan alohida korxonalariga yangi texnikalar to`plamini tashkillashtirish va ilg`or texnologiyalarni joriy etish yo`li bilan texnologik lizing konsepsiyasiga, so`ngra esa ustuvor yo`nalishdagi tarmoqlardagi bir nechta industrial klasterlar va mintaqalardagi agro oziq-ovqat klasterlari doirasida o`zaro bog`liq qayta taqsimot va ishlab chiqarishlar texnika va texnologiyalari modernizatsiya qilinadigan klaster lizingi konsepsiyasiga o`tish talab qilinmoqda,

Lizing kompaniyalari moliyalashtirishning turli manbalari va ularga muvofiq strategiyadan foydalanish imkoniyatiga ega bo`lishlari lozim. Lizing kompaniyasi faoliyatini moliyalashtirish strategiyasi moliyaga ega bo`lish imkoniyatlari yetarli, qiymati eng kam, risklari minimal darajada bo`lgan muayyan muvofiqlik va mantiqiy izchillikdagi moliyalashtirish manbalariga ega bo`lishni nazarda tutadi.

Yirik lizing kompaniyalari haqiqatan ham, ko`lamlariga ko`ra kichikroq bo`lgan lizing kompaniyalariga nisbatan ancha mustahkam moliyalashtirish strategiyasiga ega bo`ladilar. Hozirgi vaqtda mahalliy lizing bozori operatorlari moliyalashtirish manbalarini kengaytirishning bir qator yo`llarini ko`rib chiqmoqdalar. Ulardan birinchisi, xalqaro moliyaviy institutlar mablag`larini to`g`ridan-to`g`ri jalb etish hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda, xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan to`g`ridan-to`g`ri kreditlashdan tashqari lizing operatsiyalarini moliyalashtirishning boshqa manbalarini – davlat mablag`larini jalb etish imkoniyatlarini ham ko`rib chiqish zarurdir. Shunga bog`liq ravishda, aynan davlat mablag`lari mahalliy lizing bozorini rivojlantirishga katta ko`mak bergan bo`lar edi.

Lizing faoliyatini moliyalashtirish strategiyasi³³

№	Lizing faoliyatini moliyalashtirish variantlari	Lizing kompaniyasi ko`lamlari		
		kichik	o`rta	yirik
1	Banklarning qisqa muddatli va o`rta muddatli kreditlari	+	+	+
2	qisqa muddatli va o`rta muddatli nobank pul kreditlari	+	+	+
3	Lizing oluvchilar tomonidan to`lanadigan avans va boshqa to`lov shakillari	+	+	+
4	Ayrim lizing bitimlari bo`yicha debitorlik qarzlarini sotish	+	+	+
5	Alohida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ustav fondiga qo`shimcha omonatlar	+	+	+
6	Lizing predmetini yetkazib beruvchilarning tijorat kreditlari	+	+	+
7	Muayyan lizing bitimlari va o`rta muddatli kreditlar bo`yicha banklarning uzoq muddatli kreditlari		+	+
8	Ta`minotchilar mahsulotlarini sotish bo`yicha o`rta va uzoq muddatli dasturlar doirasida lizing predmeti yetkazib beruvchilarning tijorat kreditlari		+	+
9	o`rta muddatli nobank pul kreditlari		+	+
10	Veksellar emissiyasi dasturlarini tashkil etish		+	+
11	Lizing aktivlarining xavfsizligi			+
12	Tashkilotning ustav kapitalini ko`paytirish			+
13	Lizing faoliyati uchun yangi kompaniyalarni yaratish			

Hech bir moliyaviy vosita iqtisodiyotning real sektorini qo`llab-quvvatlashda lizing kabi davlat manfaatlariga javob bera olmaydi, sababi, lizing predmetining o`zi ishlab chiqarish va xizmatlar ko`rsatish vositasi bo`lib hisoblanadi. Bundan tashqari, lizing ko`rinishidagi moliyalashtirish spekuliyativ manfaatlarni ko`zlamaydi va real aktivlarga asoslanadi.

MDH mamlakatlarida lizing bo`yicha statistik ma`lumotlar to`plash va umumlashtirishning umumdavlat kompleks tizimlarini yo`lga qo`yish zaruriyati yuzaga kelganiga o`n besh yildan ortdi, aynan o`sha vaqtda ilk lizing

³³ <http://www.biznes-daily.uz>

kompaniyalari yuzaga kela boshlagan va bevosita tadqiqot predmeti – lizing faoliyati belgilab olingan edi.

Ko`p yillar davomida to`planib borgan statistik ma'lumotlar mahalliy lizing bozorini rivojlantirish istiqbollarini belgilab olish va yuzaga kelgan an'analarni tahlil qilish, uning tuzilmasini shakllantirish, ichki va tashqi bozorlarda lizing operasialari o`tkazilishiga qiziqishni kuchaytiruvchi mexanizmlarni yaratish va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, lizing faoliyatining turli shakllari va usullari asosida keng miqyosli investisiyalarni rejalashtirish uchun juda ham zarurdir.

Lizing statistikasi lizing kompaniyalarining turli bitimlari to`g`risida ma'lumotlarni qayd etish, to`plash va qayta ishlash ishlarini bajaradi; lizing faoliyatini baholash va muvofiq boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qo`llaniladigan ushbu ma'lumotlarni ko`rsatkichlar tizimi orqali umumlashtiradi. Lizing faoliyati ustidan statistik nazoratni tashkil etish bo`yicha eng muhim vazifalardan biri lizing operasialari va uning turlarini belgilab olishning hamda statistika amaliyotida lizing faoliyatini hisob-kitob qilish metodologiyasini yaratishning umumiy tamoyillarini aniq ta`riflab berishdan iborat.

O`tkazilgan tahlil natijalarini va xorijiy tajribalarni e`tiborga olgan holda, lizing bozorini rivojlantirish parametrlarini tavsiflovchi asosiy hajmiy ko`rsatkichlar sifatida lizing operasialari statistikasini olib borishda bir emas, balki ikkita ko`rsatkichni tanlash kerak bo`ladi:

- yangi biznes hajmini (bir yil davomida tuzilgan yangi lizing shartnomalari qiymatini). V.D.Gazman bu ko`rsatkichni "Yil davomida yangi tuzilgan va moliyalashtirilgan lizing shartnomalari qiymati" deb ataydi;
- lizing shartnomalari portfeli (amaldagi lizing shartnomalari bo`yicha lizing oluvchilar lizing kompaniyalariga to`lashlari kerak bo`lgan lizing to`lovlari summasi). Boshqacha qilib aytadigan bo`lsak, lizing portfeli – lizing oluvchilarning muayyan muddat uchun majburiyatlari (qarzlari) summasi.

O`zbekistonda lizing bozorini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida

lizing industriyasini rivojlantirishdagi shak-shubhasiz muvafaqiyatlar bilan bir qatorda, bir qator hal etilmagan muammo va masalalar ham ma'lum bo'ldi. Ular:

- lizing investisiyalarini moliyalashtirishning ichki manbalarini topish va foydalanish yoki investisiya jarayonida uzoq muddatga mo'ljallangan moliyaviy resurlardan foydalanish muammolari. Lizing kompaniyalari tomonidan investisiyalarni moliyalashtirishning ichki manbalarini topish jiddiy muammo hisoblanadi;
- O'zbekiston bank tizimida depozitlar ko'rinishida to'plangan pul resurslari asosan, qisqa muddatli moliyaviy resurslarga kiradi. Moliyaviy lizingni rivojlantirish uchun o'rta muddatli va uzoq muddatli moliyaviy resurslar talab etiladi. Ular O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyot va tiklanish fondida va sug'urta tashkilotlarida to'plangan. Mamlakatda moliyalashtirishda va lizing operatsiyalarini keng miqyoslarda rivojlantirishda ulardan foydalanish yo'llari va vositalari hanuz o'z yechimini topa olmagan;
- hozirgi vaqtda moliyaviy lizing to'g'risida har chorakda, O'zbekistonda lizing rivojlanishining umumiy ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi rasmiy statistik ma'lumotlarni to'plash muammosi ko'ndalang bo'lmoqda. 2005 yildan boshlab O'zbekiston lizing beruvchilari uyushmasi tomonidan internet resurslarda statistik hisobot shakllari joriy etilgan bo'lishiga qaramay, u bir qator kamchiliklarga ega hamda investorlar, aksiyadorlar, lizing kompaniyalari va lizing bozorining boshqa ishtirokchilari talablarini to'liq darajada qondira olmaydi. Statistik tadqiqotlar materiallari ko'pincha O'zbekiston Respublikasi lizing bozorining real holati, dinamikasi va tuzilishini aniq ochib berolmaydi;
- lizing sifatida berish uchun keltiriladigan jihozlarning bojxonada rasmiylashtirilishi bilan bog'liq muammolar eng dolzarb hisoblanadi. Xususan, texnologik jihozlarni imtiyozli keltirish bilan bog'liq mazkur barcha muammolarni yuzaga kelishining bosh sababi imtiyoz olish uchun ularning texnologik xususiyatlari tavsiflab beruvchi aniq bir ta'rifning

yo`qligidadir. Qo`shilgan qiymat solig`idan ozod qilinadigan, moliyaviy lizing shartnomasi bo`yicha olib kiriladigan asosiy vositalarning ro`yxati tuzilmagan. Shuni ham ta`kidlash kerakki, sublizingni va xalqaro lizingni fuqarolik-huquqiy va soliq bo`yicha tartibga solish masalalari yetarli darajada ishlab chiqilmagan, bu esa ularning rivojlanishiga to`squinlik qiladi.

Mahalliy lizing bozorini mustahkamlash va rivojlantirish jarayonida yangi-yangi yo`nalishlar yuzaga kelmoqda. Ular quyidagilardan iborat:

- lizing bozorida yangi ishtirokchilarning yuzaga kelishi: davlat va bank sho`ba lizing kompaniyalari bilan bir qatorda lizing bozorida xorijiy lizing kompaniyalari ham faoliyat olib borishi mumkinligi; mashina va jihozlar ishlab chiqarish va yetkazib berish bilan bog`liq lizing kompaniyalari; tarmoq va mintaqaviy lizing kompaniyalari, shuningdek, tijorat banklari va boshqalar;
- viloyatlarda lizing kompaniyalarining filiallari, vakolatxonlari va servis markazlarini yaratish va sonini ko`paytirish. Viloyatlarga hozirgi kunda Toshkent shahrida va Toshkent viloyatida to`plangan yetakchi lizing kompaniyalari tomonidan xizmat ko`rsatish ularning mintaqaviy filiallari va vakolatxonalari tomonidan amalga oshirila boshlandi;
- viloyatlarda lizing kompaniyalarining filiallari, vakolatxonlari va servis markazlarini yaratish va sonini ko`paytirish. Viloyatlarga hozirgi kunda Toshkent shahrida va Toshkent viloyatida to`plangan yetakchi lizing kompaniyalari tomonidan xizmat ko`rsatish ularning mintaqaviy filiallari va vakolatxonalari tomonidan amalga oshirila boshlandi;
- lizing operasialari tuzilmasini o`zgartirish va moliyalashtirish manbalarini kengaytirish. Lizing operasialarini moliyalashtirish manbalarining turlari kengayib bormoqda. Yaqin vaqtgacha banklar va davlat moliyaviy institutlari kreditlari lizing kompaniyalarining resurs bazasi tarkibida juda katta ulushni tashkil etar edi, biroq ular lizingni keng miqyoslarda rivojlantirish uchun yetarli bo`lmagan. Bozor peshqadamlari tashqi

manbalarni jalb etish orqali moliyalashtirish manbalarini kengaytirib bormoqdalar, ular qatoriga xalqaro moliyaviy tashkilotlar va banklarning kredit tizimlarini kiritish mumkin (xalqaro moliya korporasiyasi, Osiyo rivojlanish banki va b.):

- lizing bitimlarining tovar, tarmoq va mintaqaviy tuzilmasining o`zgarishi: lizing operasialari umumiy tarkibida qishloq xo`jaligi, yo`l-qurilish va qurilish texnikasi va transport vositalari ulushining turli davrlarda o`shish yoki kamayib borish an`analari;
- lizing beruvchilar tomonidan lizingli moliyalashtirish sharoitlarining yaxshilanishi. Lizing kompaniyalari o`rtasida raqobatning yuzaga kelishi natijasida bozorda turli-tuman lizing mahsulotlari va dasturlari hamda qo`shimcha xizmatlar taklif etila boshlandi; lizing kompaniyalarining foiz stavkalari va marjalari miqdorlari pasaydi; lizing kompaniyalarining ta`minotni taqdim etish talablari (garov, avans, sug`urta, ta`minotchilar tomonidan texnika sotib olish va b.) bir qadar yumshatildi.

Shunday qilib, lizing O`zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning muhim moliyaviy vositasi hisoblanar ekan, uning ko`magida korxonalarining, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarining investisiya imkoniyatlari ancha kengayadi va yangi sifat pog`onasiga ko`tariladi. Amaldagi lizing sohasiga oid qonunchilikda, buxgalteriya hisobotlari, bojxona tadbirlari va me`yoriy hujjatlarda ba`zi noaniqlik va ziddiyatlar mavjudligiga qaramay, lizing munosabatlarining rivojlanish dinamikasida ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Modomiki, lizing milliy iqtisodiyotni modernizasiya qilishning muhim moliyaviy vositalaridan biri ekan, davlat tomonidan lizing munosabatlarini rivojlantirishga yordam ko`rsatish, uni qo`llab-quvvatlash zarur.

2.3. O`zbekistonda lizing operasialarini amalga oshirish tizimi istiqbollari

Bugungi kunda lizing xizmatiga alohida ehtiyoj sezilmokda. Xususan, kichik korxonalar, xususiy tadbirkorlar, fermer xo`jaliklari aynan lizing orqali zamonaviy ixcham texnologiyalarga ega bo`lishi mumkin.

Keyingi yillarda investisiya muhitini yaxshilash, xizmat ko`rsatish va servis sohaslarini, bevosita lizing xizmatlari va servisi bozorini qo`llab-quvvatlash bo`yicha respublikamiz hukumatining olib borayotgan izchil iqtisodiy siyosati tufayli lizing xizmatlari va servisi bozori kengayib bormoqda. Jumladan, 2017 yilda O`zbekistonda lizingga berilgan mol-mulk hajmi 41,4 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo`lsa, 2018 yilga kelib bu ko`rsatkich 2017 yilga nisbatan 6,5 barobar oshib, 271,0 mln. AQSh dollariga yetdi.

Xorazm viloyati lizing xizmatlari bozorining uchdan ikki qismini egallagan “O`zqishloqxo`jalikmashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasi (ALK) O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1990 yil 30 oktyabrdagi 486-sonli “O`zqishloqxo`jalikmashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasini tashkil etish to`g`risida”gi qarori asosida tashkil etilgan.

“O`zqishloqxo`jalikmashlizing” ALKning xizmat ko`rsatish sohasi qishloq xo`jaligiga lizing asosida texnikalar yetkazib berishdan iborat bo`lib, uning asosiy mijozlari fermer xo`jaliklari va agrofimlar, mashina-traktor parklari va muqobil mashina-traktor parklari, viloyat “Qishloqxo`jalikkimyo” AJ va ularning filiallari hisoblanadi.

ALK tomonidan imtiyozli lizing xizmatini ko`rsatish shartlari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 2 noyabrdagi 424-sonli “Qishloq xo`jaligini lizing asosida qishloq xo`jaligi texnikasi bilan ta`minlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi va 2007 yil 18 iyundagi 123-sonli, 2007 yil 12 dekabrdagi 254-sonli qarorlariga asoslanadi.

Fermer xo`jaliklari hamda mashina-traktor parklari Respublika qishloq xo`jaligi mashinasozligi zavodlari va qo`shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan traktorlar va o`rim-yig`im texnikalarini lizingga olishda quyidagi imtiyozlarga egadirlar:

- avans sifatida texnika qiymatining 15 foizlik qismi to`lanadi;
- traktorlar fermer xo`jaliklariga, Qoraqalpog`iston Respublikasi va Xorazm viloyati mashina-traktor parklariga 10 yilgacha, boshqa lizing oluvchilarga 7 yil-

gacha bo'lgan muddatga lizingga beriladi;

- lizing marjasi foizi miqdori Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan oshmaydi va lizing oluvchi tomonidan lizing ob'ekti avvaldan sug'urtalanib, sug'urta polisi lizing beruvchiga taqdim etiladi.

ALKning umumiy asoslarda lizing xizmatini ko'rsatish shartlari esa quyidagilardan iboratdir:

- avans sifatida texnika qiymatining 15 dan 40 foizgacha bo'lgan qismi to'lanadi;

- texnika 1,5 yildan 3 yilgacha bo'lgan muddatga lizingga beriladi;

- lizing marjasi foizi miqdori yillik 16-20 foiz darajasida belgilanishi mumkin;

- lizing ob'ekti va uning sotuvchisi lizing oluvchi tomonidan tanlanadi.

Tadqiqotlar jarayonida viloyat lizing xizmatlari bozorida servis xizmatlarini ko'rsatish ahvoli kuzatildi va tahlil etildi.

Kuzatuvlarga ko'ra, Xorazm viloyati lizing xizmatlari bozorida servisni rivojlantirish zarurati quyidagilar bilan asoslandi:

- lizingga berilgan mol-mulk tarkibida ilg'or uskunalarning kamligi;

- bir birlik qishloq xo'jalik texnikasini yetkazib berish bilan bog'liq transport sarf-xarajatlarining yuqoriligi (780-980 ming so'm);

- tadbirkorlarning texnika va uskunalarni saqlash hamda foydalanish me'yorlarini bilmasligi va rioya etmasligi sababli, aksariyat hollarda lizingga berilgan qishloq xo'jalik texnikalarining muddatidan oldin ta'mir talab holatga kelishi, ular tomonidan texnikalarning o'z bilganicha ta'mirlanishi;

- texnik ta'mirlash markazlarining kamligi, mutaxassislarning yetishmasligi hamda ehtiyot qismlarning o'z vaqtida yetkazib berilmasligi (1,5-2 oy) oqibatida texnikalarning uzoq muddat ishlatilmay turib qolishi va natijada asosiy vositalar iqtisodiy samaradorligining pasayishi.

Bugungi kunda viloyat lizing xizmatlari bozorida qishloq xo'jalik texnikalari segmentining ulushi 70 %dan ortiqni tashkil etmoqda. Aksincha, boshqa segmentlarning lizing xizmatlari bozorida ulushi ancha kam, ayniqsa xorijiy texnolo-

giyalarning ulushi ahamiyatsiz darajada.

Viloyatda xorijda ishlab chiqarilgan mini texnologiyalarni yetkazib beruvchi yagona “Xorazm Global Servis” MCHJ kompaniyasi faoliyat yuritmoqda. Kompaniya asosan naqd mablag`lari mavjud bo`lgan tabdirkorlik sub`ektlariga xizmat ko`rsatishni afzal ko`rishi ma`lum bo`ldi. Buning sababi shundaki, kredit yoki lizing mablag`larining xorijiy ishlab chiqaruvchi kompaniya hisob raqamiga kelib tushishi uzoq vaqtni talab etadi (2-4 oy). Bu esa kompaniyaga ham, tadbirkorga ham xush kelmaydi. Natijada, ushbu holat kompaniya bilan lizing beruvchilar o`rtasidagi hamkorlik aloqalariga salbiy ta`sir etmoqda.


Viloyatda asosiy qishloq xo`jalik texnikasini yetkazib beruvchi hisoblangan “O`zqishloqxo`jalikmashlizing” ALK viloyat filiali ma`lumotlariga ko`ra, lizinga olingan texnikalarni ishlab chiqaruvchi korxonadan (masalan, Toshkent traktor zavodi (TTZ)) tashib keltirish xizmati bevosita lizing oluvchi zimmasiga yuklatilgan.

Lizing oluvchilar bilan o`tkazilgan suhbatlardan shu narsa ma`lum bo`ldiki, ular ikki yoki uch kishi bo`lib ishlab chiqaruvchi korxonaga jo`naydilar (Toshkent shahriga). Korxonada ularni lizing kompaniya mutaxassislari kutib oladi va o`zlari ekspertizadan o`tkazgan qishloq xo`jalik texnikasini shu yerning o`zida ularga topshiradi. Lizing oluvchilar texnikani yuk avtomobiliga joylashtirib viloyatga olib keladilar.

Bizning fikrimizcha, lizinga berilgan texnikalar (traktorlar) “O`zqishloqxo`jalikmashlizing” ALK viloyat filiali tomonidan markazlashgan holda tashib keltirilishi birinchidan, lizing oluvchilar vaqti va mablag`larining tejalishiga, ikkinchidan, kompaniya daromadining oshishiga, uchinchidan texnik xavsizlikning ta`minlanishiga olib keladi.

2.3.1- diogramma.

“O`zqishloqxo`jalikmashlizing” ALK Xorazm viloyat filiali faoliyatida servis xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo`nalishlari³⁴



Lizing faoliyatida servisni rivojlantirish bo`yicha berilgan ushbu amaliy takliflar boshqa mintaqalardagi lizing kompaniyalari tomonidan ham qo`llanilishi mumkin bo`lib, kompaniyalar faoliyatida mijozga yo`naltirilgan servis xizmatlarini rivojlantirish orqali ularning lizing to`lovlari ko`rinishidagi daromadlari muttasil oshib borishiga va asosiy vositalar foydali xizmat qilish muddatlarining ortishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Bugungi kunda O`zbekistonda lizing xizmatlari va servisi sektorining rivojlanish darajasi oltita bosqichning ikkinchi bosqichiga to`g`ri keladi. Lizing xizmatlari turlarini kengaytirish, tarmoqda servisni kuchaytirish hamda xorijiy kapitalni faol jalb qilish rivojlanishning keyingi bosqichlariga chiqish shartlari hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishda dunyoda va respublikamizda mavjud lizing xizmatlari turlari va shakllari qiyosiy o`rganilgan va tasnifi ishlab chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishda lizing xizmatlarining muvaffaqiyatli rivojlanishiga to`squinlik qiluvchi holatlarning eng muhimlari aniqlandi. Bularga: lizing kompaniyalarining moliyaviy jihatdan zaifligi, kredit resurslarining qiymati yuqori

³⁴ Stat.uz

ekanligi, garov qonunchiligining yaxshi rivojlanmaganligi, texnika va uskunalar ikkilamchi bozorining shakllanmaganligi, soliq, bojxona va valyuta qonunchiligidagi ayrim ziddiyatlarning mavjudligi, xodimlarning yetarli malakaga ega emasliklari, lizing xizmatlari bozori ishtirokchilari lizingning mohiyatini, afzalliklarini yetarlicha tushunib olmaganliklari uskunalariga texnik xizmat ko'rsatuvchi va zarur ehtiyot qismlarni yetkazib beruvchi infratuzilmaning zaifligi, rivojlangan lizing kompaniyalari, konsalting firmalari, lizing xizmati takliflari haqida doimo to'ldirib turiladigan reklama va axborot ta'minoti tizimi to'la rivojlanmaganligi kabilarni keltirish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishda Xorazm viloyati lizing xizmatlari va servisi bozorining bugungi kundagi ustun va zaif jihatlari, imkoniyatlari hamda tahdidlarining SWOT-tahlili ham amalga oshirilgan.

2.3.4 – jadval. Xorazm viloyati lizing xizmatlari va servisi bozorini rivojlantirishning SWOT-tahlili³⁵

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
<ul style="list-style-type: none"> • qulay me'yoriy-huquqiy zaminning yaratilganligi • soliq va bojxona imtiyozlarining mavjudligi • lizing obyektining lizing oluvchiga o'z vaqtida yetib borishi • Lizing predmetlarining diversifikatsiyalashuvi • Bozorda yangi va kuchli lizing beruvchilarning paydo bo'lishi 	<ul style="list-style-type: none"> • LXS bozorida qishloq xo'jalik texnikalari segmentining hukmronligi • Lizing xizmatlari va servisining zaifligi • Lizing kompaniyalari sonining kamligi • Tijorat banklarida kredit operatsiyalariga ustuvorlik berilishi • To'lovlar qodir lizing oluvchining sonini kamligi • Lizing beruvchilarda moliyaviy resurslar cheklanganligi • Lizing to'g'risida yetarli axborotga ega bo'lmaslik
Imkoniyatlar	Tahdidlar
<ul style="list-style-type: none"> • Hukumat tomonidan LXSga ustuvorlik berilishi • Viloyat LXSBda lizing beruvchilar soni va moliyaviy resurslarning ko'payishi • To'lovga qobil lizing oluvchilarni ko'proq jalb qilish • LXS bozori ko'pgina segmentlarining o'zlashtirilmaganligi • Jismoniy shaxslarga mikrolizing xizmatlarini ko'rsatishni tashkil etish 	<ul style="list-style-type: none"> • Baholar va foiz stavkalarining oshishi • Soliqlarning o'sishi va bozor kon'yunkturasining o'zgarishi • Boshqa hududlardagi yoki xorijiy raqobatchilar bozor mavqeining o'sishi • Valyutali lizing xizmatlari uchun valyuta kursining nobarqarorligi • Qonunchilikdagi o'zgarishlar • Lizing obyektining ma'naviy eskirishi

³⁵ Abdullayev F.O. "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda lizing xizmatlari va servisini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy omillari" mavzusida iqtisod fanlari nomzodini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati

Fikrimizcha, SWOT-tahlil natijalaridan mintaqadagi lizing kompaniyalari va banklar tomonidan unumli foydalanilishi, aynan o`z lizing xizmati bozorining zaif tomonlari va tahdidlarini bartaraf etish, kuchli tomonlari hamda imkoniyatlarini to`liq ishga solish bo`yicha samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Respublikamiz va mintaqalarda lizing xizmatlarini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy omillarning roli katta. Chunki ular ta'sirida lizing xizmatlari milliy, mintaqaviy, xududiy va mahalliy darajada tartibga solinadi.

Istiqbolda Xorazm viloyati lizing bozorini rivojlantirishda mintaqahududlari o`rtasidagi yuqorida keltirilgan tafovutlarni hisobga olish lozim. Fikrimizcha, hududlarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, joylarda tadbirkorlik muhiti va ko`nikmasini shakllantirish, lizing oluvchilarning to`lov qobiliyatini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, zarur uskuna va texnologiyalar yetkazib beruvchi hamda texnik xizmat ko`rsatuvchi markazlarni tashkil etish, lizingga beriladigan mol-mulk tarkibini diversifikasiyalash kabi choratadbirlarni amalga oshirish hududlar o`rtasidagi tafovutni qisqartirish va viloyatda lizing bozorini rivojlanishini yangi bosqichga chiqarish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar

Bitiruv malakaviy ishni ishlash natijasida quyidagi nazariy xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

1. O`zbekiston Respublikasi lizing xizmatlari bozori tahlil qilinarkan, O`zbekiston lizing bozorida quyidagi yangi tahdidlar va imkoniyatlar aniqlandi:

- Lizingga beriladigan mulk qiymatidan QQS hisoblash uchun bazani o`zgartirish bo`yicha 2019 yildan boshlab O`zR Soliq Kodeksiga kiritilgan o`zgarishlar;
- Lizing kompaniyalarini mahalliy banklar tomonidan milliy valyutada kreditlashning o`ziga xos xususiyatlari;
- KO`Bni moliyalashtirishda, shu jumladan valyuta bozorini erkinlashtirish hisobidan import uskunalari bilan ta`minlashda tijorat banklari rolining kuchayishi;
- Valyuta bozorini erkinlashtirishning ayrim yirik lizing beruvchilarga ta`siri – loyihalarning restrukturizatsiyasi, portfellar tuzilmasi va muddatlarining o`zgarishi;
- Tijorat banklarida lizing amaliyotlarini amalga oshirish bo`yicha cheklolarning bekor qilinishi;
- Lizing faoliyatini lisenziyalashtirish bo`yicha tez-tez yangrayotgan chaqiriqlar;
- Bir nechta lizing kompaniyasiga nisbatan jinoiy ishlarni qo`zg`atish faktlari;
- Lizing kompaniyalari uchun xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalarini jalb etish imkoniyati.

2. Avvalgi yillardagi kabi, lizing beruvchilarning moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyati lizing sektorini rivojlantirishning belgilovchi omillaridan biri hisoblanadi. Lizing kompaniyalari to`g`ridan-to`g`ri xorij kreditlarini jalb etish masalasini ishlab chiqishlari; lizing bitimlarini moliyalashtirish uchun foydalaniladigan resurslarni jalb etish uchun sug`urta kompaniyalari bilan hamkorlik qilishi kerak. Sug`urta kompaniyalari xorij

mamlakatlardan uskunalar yoki texnika yetkazib berish bo'yicha shartnomalarni imzolaganda eksport agentliklarining sug'urta polisi ostiga kafolatli ta'minotni qo'llagan holda kredit liniyalari bo'yicha banklar oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun lizing kompaniyalariga qo'shimcha ta'minotni taqdim etadilar. Bu, o'z navbatida, lizing bitimlarini erkin ayirboshlanadigan valyutada moliyalashtirish hajmlarining oshishini rag'batlantiradi. Biroq, toboro ko'proq xalqaro moliya institutlari O'zbekiston lizing beruvchilari bilan hamkorlik qilishga tayyor hamda ular bilan muzoqaralar uchun ochiq.

3. Hududlarda kichik va o'rta biznesga quyidagi uskunalar va innovasion texnologiyalarni xarid qilish O'zbekiston lizing bozori o'sishi uchun eng istiqbolli yo'nalishlar hisoblanadi:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash; to'qimachilik;
- qurilish;
- farmasevtika;
- tibbiyot;
- xizmatlar;
- tiklanadigan energiya manbalari;
- avtotransport;
- turizm.

Xulosa qilib aytganda, lizing imkoniyatlarini kengaytirish tadbirkorlarga o'z korxonasining texnik bazasini tezkor ravishda yangilash imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, yangi uskunalar yordamida korxonada daromadi hamda rentabelligi, mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

I. O`zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari.

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O`zbekiston, 2014.
2. «Lizing to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni, 1999 yil 14 aprel // «O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami», 1999 yil, 5-son, 245-modda.
3. “Banklar va banklar faoliyati haqida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni (11.06.1994 y.) // O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1994 yil, 5-son, 134-modda.
4. «Bank siri to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni (25.03.2002 y.) // O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 yil, 3-son, 129-modda.
5. «Tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirishni rag`batlantirish chora-tadbirlari to`g`risida» O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 19 dekabrda PF-3831-son Farmoni.
6. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi PF-4947-sonli farmoni.//O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
7. O`zbekiston Respublikai Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so`zi, 2018 yil 29 dekabr, №271-272 (7229-7230)

II. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari.

8. Sh.M.Mirziyoev “Erkin va faravon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” – Toshkent: O`zbekiston, 2017.
9. Sh.M.Mirziyoev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi.2017

yil 14 yanvar”: O`zbekiston, 2017.

10. Sh.M.Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”-Toshkent: “O`zbekiston”, 2017.

11. Sh.M.Mirziyoev “Milliy taraqqiyot yo`limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz” – Toshkent: O`zbekiston, 2017.

III. Sohaga oid me’yoriy hujjatlar.

12. “2009 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2010 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to`g`risida” O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. 2009 yil 30 yanvar.

13. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko`rsatkichlariga erishishning ustuvor yo`nalishlari to`g`risida”gi PQ-1438-sonli Qarori.

14. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat Dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy choralari haqidagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 14 dekabrdagi F-3539-sonli Farmoyishi.

15. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.06.2000 yildagi «Birjadan tashqari valyuta bozorini mustahkamlash va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qarori // Xalq so`zi. 2000. №124.

16. «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag`batlantirish chora-tadbirlari to`g`risida» O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 2002, 8-son, 131-132-betlar.

IV. Asosiy adabiyotlar.

17. Акрамов А. «Лизинговые операции реальны и должны быть популярны». // Банковские ведомости, №41 (180), 1999.

18. Аксенов В. «Лизинг или кредит — что выгоднее?» // Банковские ведомости, №50, декабрь, 1999.

19. Ачилов М.Ф., Безбородое А.Г., Газибеков Д.Г., Котов В.А. Проблемы интеграции банковской системы Узбекистана в мировое банковское сообщество. - Ташкент: БФА Республики Узбекистан, 1999.
20. «Bozor iktisodiyoti nazariyasi va amaliyoti». Darslik, mualliflar guruxi. - T.: Ukituvchi, 2000. 9-10-11-boblar.
21. Boltaev O. Banklarda lizing operasialari hisobini tashkil etish. //Bozor, pul va kredit. №9, sentyabr, 2003.
22. Болтаев О. Банкларда лизинг операциялари хисобини ташкил этиш. //Бозор, пул ва кредит. №9, сентябр, 2003.
23. Васильев Н.М., Катырин С.Н., Лепе Л.Н. «Лизинг как механизм развития инвестиций и предпринимательства». - М.: ООО Издательско-консалтинговая компания «ДеКА», 1999.
24. Возможности перспективы развития лизинга // Бозор, пул ва кредит, №03, 2009-06-25.
25. Галимов Ю. «Лизинг - синтез аренды и кредита» // Деловой партнер Узбекистана, февраль, 2000.
26. Газибеков Д.Г., Сабиров О.Ш. «Лизинг и его развитие в Узбекистане», - Т.: Молия, 2001.
27. Васильев Н.М., Катырин С.Н., Лепе Л.Н. «Лизинг как механизм развития инвестиций и предпринимательства». - М.: ООО Издательско-консалтинговая компания «ДеКА», 1999.
28. Галимов. Ю. «Лизинг - синтез аренды и кредита» // Деловой партнер Узбекистана, февраль, 2000.
30. Gozibekov D.R. "Investisiyalarni moliyalashtirish masalalari". - T.: Moliya, 2003.
31. Gozibekov D.G., Sobirov O.SH., Muminov A.G., Kuljonov O.M. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. - T.: «Fan van texnologiya», 2004.
32. Джуха В.М. Лизинг. Серия «Учебники, учебные пособия». - Ростов н/Д: «Феникс», 1999.

33. Договор лизинга. Налоговые и таможенные вести, №51, декабрь, 2003.
34. Ершова И. «Лучше лизинга может быть только лизинг» // Бизнес-Вестник Востока, №45, 1998.
35. Законодательство о лизинге изменено // Бизнес-вестник Востока. №7, феврал, 2003.
36. «История лизинга» // Бизнес-вестник Востока, 6 июня 2002 года, №23(541), стр.5.
37. И снова о лизинге // Бизнес-вестник Востока. №27, июл, 2003.
38. Кабатова Е.В. «Правовое регулирование лизинга в России // Консультант директора. - 1996, №2.
39. Кабатова Е.В. «Лизинг: понятие, правовое регулирование, международная унификация. - М.: ИНФРА-М, 1991.
40. Кабатова Е.В. «Лизинг: правовое регулирование, практика», - М.: ИНФРА-М, 1998 г.
41. «Компромисс интересов» // Бизнес-вестник Востока, 28 февраля 2002 года, №9(527), стр.6.
42. Козлова Д. «Лизинг: новые горизонты предпринимательства» // Экономика и жизнь №29, июль, 1996.
43. «Лизинг обречен на успех, но мешают налоговые проблемы». //«Экономика и жизнь», №8, 1996.
44. «Лизинг в России: пора подводить первые итоги» // «Экономика и жизнь» № 17 за 1996 г.
45. Лизинг: законодательство, практика применения, перспективы. - М.: Материалы научно-практической конференции, 29 июня 2000 года.
46. «Лизинг на пути реформ» // Бизнес-вестник Востока, 21 февраля 2002 года, №8(526), стр. 10.
47. «Lizing xujalik shartnomalari va buxgalteriya hisobida» // Solik va bojxona xabarlar, 2002 yil 7 iyun, 24(412) son, 6-7 betlar.
48. Лизинг в России //У Бизнес-вестник Востока, №29, июл, 2002.

49. Лизинг: что это такое? // Бизнес-вестник Востока, №21, май, 2002.
50. Лизинг в США // Бизнес-вестник Востока, №35, август, 2002.
51. Лизинг: основы теории и практики: учебное пособия / В.А. Шабашев, Е.А. Федулова А.В. Едошкин; под. ред проф. Г.П. Подшиваленко. 3-е изд. перераб и оп. - М.: кнорув, 2007.
52. Лизинг в Узбекистане // Бизнес-вестник Востока, № 14, ноябрь, 2004.
53. Лизинг солохияти // Уз ИА, №9-10, 2007.
54. Лизинг в сельском хозяйстве Республики Кыргызстан // Бозор, пул ва кредит; № 05, 2008.
55. Лизинговые операции: преимущества налицо // Бозор, пул ва кредит, №5, 2008.
56. Лизинг-фермерга мадад // Бозор, пул ва кредит, №3, 2009.
57. Лещенко М.И. Основы лизинга: Учеб пособие 2-е изд. перераб и доп. - М.: Финанси и статистика, 2004.
58. Низаев Т. «Покупают аэропорт: для чего?». // Правда Востока, 27 октябрь, 2000.
59. Новые изменения в законодательстве о лизинге // Бизнес-вестник Востока, №36, сентябр, 2003.
60. О пользе лизинга // Бизнес-вестник Востока. №16, апрел, 2003.
61. «Перспективы и проблемы одной услуги». // Бизнес-вестник Востока, 27 июня 4 июля 2001 года, №26, стр.6.
62. Правовое регулирование лизинга в Узбекистане // Бизнес-вестник Востока, №25(27), июн(июл), 2002.
63. «Рынок лизинга расширяется». // Бизнес-вестник Востока, 30 января 2003 года, №5(575), стр.4.
64. «Реал сектор ва кичик бизнесни молияий куллаб-куватлаш» // Бозор пул ва кредит, № 2, 2009.
65. Рынок лизинга в Европе. // Бизнес-вестник Востока, №45, ноябр, 2003.

66. Расторжение договора лизинга и истребование объекта лизинга // Налоговые и таможенные вести, декабр, 2003.
67. Сабилов О.Ш. «Лизинг в Узбекистане: проблемы и решения» // Рынок, деньги и кредит, №4, 2000 .
68. Сабилов О.Ш. «Проблемы внедрения лизинга при финансировании инвестиций», «Иктисодиётни эркинлаштиришнинг минтакавий муаммолари» мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари, Фаргона, 2000.
69. Сотрудничество МФК И ЕБРР в Республике Узбекистан // Бизнес-вестник Востока, № 18, май, 2003.
70. Ускоренная амортизация. // Бизнес-вестник Востока, №49, декабр, 2002.
83. Финансовая аренда (лизинг) в России. Обзор нормативно-правовой базы. - М.: Международная финансовая корпорация, 2001.
71. «Финансовый лизинг становится рентабельным» // Бизнес-вестник Востока, 23 января 2003 года, №4 (574), стр.4.
72. Что тормозит лизинг в Узбекистане? // Бизнес-вестник Востока, №17, апрел, 2002.

VII. Интернет сайтлари.

80. www.uzreport.com
81. www.review.uz
82. www.worldbank.org
83. www.financy.ru
84. www.bank.uz
85. www.stat.uz
86. www.ula.uz